


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

J.B. MAJIDOV

PSIXODIAGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA

*(Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy
ko'rsatmalar)*



TOSHKENT – 2015

UO'K: 159.9(072) - *Психология*
KBK 88.4
M-15

M-15 J.B. Majidov. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. (Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar). -T.: «Fan va texnologiya», 2015, 108 bet.

ISBN 978-9943-990-12-8

Ushbu qo'llanmada bo'lajak psixologiya va pedagogika yo'nalishidagi mutaxassis – talabalari o'z faoliyatlarida psixologik diagnostikaning metod va usullaridan samarali foydalanishlari uchun amaliy psixologiyaga oid bilimlarni berish, psixodiagnostika va eksperimental psixologiya kursi bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari olib borishi uchun psixodiagnostik metodlar, psixologik tadqiqot natijalarini tahlil qilishning uslublari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Ushbu qo'llanma 2014-yildagi Davlat ta'lim standarti talablari asosida tayyorlangan bo'lib, oily o'quv yurtlari pedagogika va psixologiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, shuningdek, umumta'lim maktabi psixologlari, shu soha bo'yicha faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va umuman shu sohaga qiziqqan barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

N.Mullaboyeva – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

R.A.Abdurasulov – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;

R.Nurmatov – pedagogika fanlari nomzodi.

JDPI o'quv-uslubiy Kengashining 2015-yil 27-maydagi 9-sonli qarori bilan chop etildi.

ISBN 978-9943-990-12-8

Alisher Navoiy

nomidagi

O'zbekiston MK

2016/3

A

210

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimi jadal rivojlanib borayotgan bir davrda ko'pchilik psixologlarning shaxsni tadqiq etishidan maqsadi, inson ruhiyatida kechayotgan jarayonlarni aniqlash va shu asosda faoliyat mazmunini yanada mukammal amalga oshirishlarida ko'mak berish hisoblanadi.

Psixologik diagnostika zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan boyib borayotgan, jamiyat uchun kerak bo'lgan ilmiy fanning amaliy sohasidir. Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning o'z faoliyatlarida psixologik diagnostikaning metod va usullaridan samarali foydalanishlari lozimligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Chunki psixodiagnostika yordamida shaxsning aqliy imkoniyatlari, shaxsiy xususiyatlari, undagi ijtimoiy-psixologik ta'sir omillarini o'rganish orqali, har qanday faoliyat jarayonini to'g'ri rejalashtirish, uchraydigan kamchiliklarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkoniyatini yaratish mumkin.

Uslubiy ko'rsatmaning asosiy maqsadi ham talabalarga amaliy psixologiyaga oid bilimlarni berish hamda shu sohaning ilmiy tadqiqot metodlarini amalda qo'llashga o'rgatishdan iboratdir. Mazkur uslubiy ko'rsatma asosan amaliy xususiyatga ega bo'lsa ham, odatda nazariya bilan uyg'unlashgan holda olib boriladi.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada o'quv yurti talabalarining psixodiagnostika va eksperimental psixologiya kursi bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari uchun taqdim etiladigan psixodiagnostik metodikalarga bag'ishlangan bo'lib, psixologik tadqiqot natijalarini tahlil qilishning uslublari, natijalarni ifodalashga doir ko'rsatmalar, har bir mavzuga aloqador tajriba ishlari, tadqiqot maqsadi, tadqiqot uchun kerakli materiallar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Shuningdek, uslubiy ko'rsatmada shaxs psixodiagnostikasi muammolari va ularga doir diagnostik savolnomalarning tarixi xususida ham ayrim nazariy ma'lumotlar berib o'tilgan.

Mashg'ulotlarda tavsiya etilgan metodikalar o'zbek olimlari tomonidan modifikatsiya qilingan.

Ushbu uslubiy ko'rsatma 2014 yildagi fan dasturi va DTS talablari asosida tayyorlangan bo'lib, psixodiagnostika va eksperimental psixologiya kursi bo'yicha mashg'ulotlarda talabalar hamda amaliyotchi psixologlar foydalanishi uchun mo'ljallangan.

1-LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Bilish jarayonlari psixodiagnostikasi (1-6- mashg'ulotlar).
(Sezgirlik chegarasini o'rganish)

Maqsad: Muskul sezgisining farq qilish chegarasini aniqlash.

Material: 1 grammdan 500 grammgacha bo'lgan har xil qadoq tosh va metall plastinkalar.

Bilish muammosi qadim zamonlardan beri kishilik dunyosini qiziqtirib keladi, ammo u bugungi kunda fan va texnikaning rivojlanishi tufayli yanada dolzarb masalaga aylanib qoldi. Shu boisdan, bilish nazariyasi falsafa, tarix, filologiya, kibernetika, pedagogika, psixologiya kabi fanlarning tadqiqot predmetiga aylanib, ularning har qaysisi o'zining mohiyatidan kelib chiqib, uning u yoki bu jabhalarini o'rganadi. Boshqa fanlardan farqli o'laroq, psixologiya fani insonning ontogenezida bilishning vujudga kelishi, uning o'ziga xos psixologik mexanizmlari, unda ehtiyoj, motiv, emotsiya va irodaning o'ri, tanishish zarurat hisoblangan obyektning notanishligi, ko'rinishi hamda materiallar mazmunining ahamiyatini tekshiradi.

Bizningcha, obyektiv dunyo to'g'risidagi ma'lumotlar, fan asoslari bo'yicha axborotlar, ijtimoiy va individual tajribalar, shaxslararo munosabat va muomala o'rnatish, muayyan faoliyatni tashkil qilish va uni boshqarish o'zini o'zi anglashga taalluqli tarkibiy qismlar bilan qurollanishga, ijod va yangilik yaratishga qaratilgan murakkab, iyerarxik hamda integral xususiyatli, faqat insoniyatgagina xos bo'lgan, aqliy va jismoniy negizga quriluvchi intilish va faollikning majmuasi bilish deb ataladi.

Bilishning psixologik bosqichlari, darajalari, ko'lami, kengligi, chuqurligi, to'liqligi, aniqligi, yaqqolligi, ifodalanish shakllari va vositalari, barqarorligi, mustaqilligi va uning ijtimoiy psixologik mexanizmlari to'g'risida ma'lumotlar sharhlanadi.

Bizni qurshab turgan obyektiv borliqni bilish xususiyatiga oid jahon psixologiyasi fanida ko'plab ilmiy nazariyalar, mustaqil konsepsiyalar, o'xshash qarashlar, puxta pozitsiyalar, xilma-xil yondashishlar mavjud, ammo shunga qaramasdan, bu asnoda bilishning filogenetik qonuniyatlari, taraqqiyot bosqichlari, ularning bunyodkor mexanizmlari, muayyan o'ziga xoslik, ulardagi barqarorlikni ta'minlovchi shart-sharoitlar, harakatlantiruvchi kuchlar, obyektiv va subyektiv

omillarning ta'sirchanlik imkoniyati rang-barangligi tufayli ontogenetik davrning xususiyatlari to'g'risida mulohaza yuritishning o'zi yetarlidir.

Inson shaxs bo'lib shakllanishida va rivojlanishida bilish jarayonlari asosiy funksiyani bajaradi. Bilish jarayonlari qadim zamonlardan beri olimlarning diqqat markazida bo'lgan muammolardan biri bo'lib kelgan. Insonning ontogenezida bilish jarayonini amalga oshiruvchi, uni yuzaga keltiruvchi asosiy manbalar mavjud bo'lib, bizningcha, ular taxminan quyidagilardan iborat:

- 1) tug'ma instinktlar;
- 2) shartsiz reflekslar;
- 3) shartli reflekslar;
- 4) ideomotor harakatlar;
- 5) predmetli harakatlar;
- 6) taqlid yoki imitatsiya;
- 7) tajriba;
- 8) mashq;
- 9) ko'nikma, malaka, odat (ularni o'zlashtirish imkoniyati va egallash vaziyati);

10) refleksiya (xulq va ongli boshqarish). Bilish jarayonining mohiyati va o'ziga xosligini vujudga keltiruvchi asosiy psixologik negizlari tariqasida:

- 1) ehtiyoj;
- 2) motiv (motivatsiya);
- 3) mayl;
- 4) moyillik;
- 5) qiziqish;
- 6) ustanovka;
- 7) tug'ma, tabiiy alomatlar;
- 8) faollik;
- 9) ruhiy holatlarning barqarorligi;
- 10) obyektiv va subyektiv xususiyatli funksiyalar xizmat qilishi mumkin.

Asosiy bilish jarayonlari sifatida biz: sezgi, idrok, xotira, tafakkur, hayolni tushunamiz. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq kabi alohida psixik jarayon emas. Shuning uchun barcha psixik jarayonlarda qatnashadi, ularning mahsuldorligini oshirishga ta'sir etadi. Shu boisdan diqqat qaratilgan obyektlar ong to'plangan nuqtasida aniq, yaqqol aks ettiriladi. Demak, diqqat aqliy jarayonlarning sifati, mahsuldorligi va samaradorligini

ta'minlovchi insonning ichki aktivligidan iboratdir. Shuningdek, u har qanday inson faoliyatining zaruriy shartidir.

Bilish jarayonlarini o'rganish, tadqiq qilish doimo qiziq mashg'ulot sanalgan. Quyida biz mashg'ulotimiz mazmuniga muvofiq ayrim eksperimentlarni taklif etamiz.

Sezgirlikning farq qilish chegarasini aniqlash maqsadida ham minimal o'zgaruvchilar metodidan foydalaniladi. Farq qilish chegarasini aniqlash maqsadida dastlab etalon qo'zg'atuvchini ajratib olish kerak. Dastlab etalon qo'zg'atuvchi, keyin o'zgaruvchi qo'zg'atuvchilar bir vaqtda beriladi. Tekshiriluvchi «katta», «kichik» yoki «teng» deb javob berishi kerak bo'ladi. Natijalarni tahlil qilish uchun javoblar o'zgarishi «kichikdan tengga» «tengdan katta» ga o'tishining chegarasini aniqlash zarur bo'ladi. «katta» va «kichik» degan javoblarning o'rtacha qiymati topiladi. Ular o'rtasidagi farq noaniqlik intervalini belgilaydi. Noaniqlik intervalining teng yarmi qidirilayotgan farq qilish chegarasini topish imkonini beradi.

Ishning borishi:

Tekshiriluvchi ko'zi yumuq yoki bog'lab berkitib qo'yilgan holda o'ng va chap qo'lga bittadan qadoq toshni olib, ularning vaznini chamalaydi. Har ikkala toshni u qo'ldan bu qo'lga almashtirib, chamalab, salmoqlab ko'rishi ham mumkin. Dastlab har ikkala toshning vazni baravar (masalan, 600 grammdan) bo'lishi kerak. Tekshiriluvchining bir qo'lidagi qadoq tosh taqqoslash uchun «o'zgarmas me'yor» bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi qo'lidagi qadoq toshlarning vazni sekin-asta (1, 2, 3 va h.k. grammgacha) orttirib boriladi va tekshiriluvchidan toshlarning qay biri og'irlashganligini dam-badam so'rab boriladi. Muayyan vaqt o'tgach, tekshiriluvchi ikkala qo'lidagi toshlar vazni o'zgarganini sezadi. Tekshiriluvchi tomonidan farqlab olingan qo'shimcha og'irlik miqdori undagi muskul sezgisini farqlash chegara ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Har bir ko'rsatkich bayonnomada qayd etib borilishi kerak.

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

Tartib raqami	Tavsiya qilingan qo'zg'ovchi (gramm hisobida)		Tekshiriluvchidan olingan ko'rsatkich
	Doimiy	O'zgaruvchi	
1	600	601	Teng
2	600	602	Teng
3	600	603	Teng
4	600	604	Teng
5	600	606	Teng
6	600	610	Teng
7	600	612	Teng
8	600	615	Teng
9	600	617	Teng
10	600	618	Teng
11	600	619	Teng
12	600	620	O'ng qo'limdagi og'ir
13	600	620	O'ng qo'limdagi og'ir
14	600	620	O'ng qo'limdagi og'ir
15	600	620	O'ng qo'limdagi og'ir

Har bir tekshiriluvchida uning yoshi, tajribasi, hatto shug'ullanadigan ish faoliyatiga bog'liq holda sezgirlik chegarasi o'zgarishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichga qarab sezgirlik chegarasi haqida xulosa chiqariladi.

2-LABORATORIYA ISHI

Shaklni idrok qilishda faol va passiv tuyushning roli

Maqsad: Geometrik shakllarni idrok qilishda tuyushning rolini aniqlash.

Material: Shaklli, burchaklarining soni va katta-kichikligiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi yassi geometrik shakllar, oq qog'oz, qalam.

«Tuyish» tushunchasidan ikki xil o'rinda foydalanilishi mumkin. Birinchidan – teri sezgirligini ifodalash maqsadida. Bu holda uning – harorat, og'riq va taktil sezgirlik turlari farqlanadi. Ikkinchi tomondan – gaptik sezgirlik sifatida namoyon bo'lib, uning taktil va kinestetik turlari ajratiladi. Gaptik sezgirlik – paypaslab ko'rish orqali hosil bo'ladi. Agar obyekt qo'lda tinch holatda tursa, bu passiv tuyish bo'ladi. Tekshiriluvchi predmetni paypaslab ko'rganda faol tuyish haqida so'z borishi mumkin. Predmetni paypaslab ko'rish jarayonida ikki qo'l ham ishtirok etsa, bimanual tuyish hisoblanadi. Predmetlarning shaklini idrok qilishda aktiv va passiv tuyushning rolini aniqlash maqsadida quyidagi tajribani o'tkazish mumkin. Tajriba IV bosqichdan iborat. Har bir bosqichda qo'zg'atuvchi sifatida shakli va murakkabligi jihatidan turlicha bo'lgan 3 tadan figura yoki geometrik shakl beriladi. V bosqichda esa tuyish obrazlari hosil bo'lishida har ikki qo'lning o'zaro ta'siri o'rganiladi.

Tajriba jihozi – qattiq kartondan yasalgan burchaklari va shakli bir – biridan farq qiladigan geometrik shakllardir.

Tajriba natijalari I-IV bosqichlar uchun alohida va V bosqich uchun alohida tahlil qilinadi. Tekshiriluvchilarning javoblari 5 ballik shkala asosida baholanadi. Har bir bosqich bo'yicha o'rtacha qiymat aniqlanadi va xulosa chiqariladi.

Ishning borishi:

Tajriba 4 bosqichda olib boriladi.

Birinci bosqich – tinch turgan shaklni passiv tuyish.

Tekshiruvchi tekshiriluvchining kaftiga harakatlanmayotgan shaklni qo'yadi. Bunda tekshiruvchiga shaklni bosish, tekshiriluvchiga esa uni paypaslab ko'rish ta'qiqlanadi. Tekshiruvchining buyrug'i bilan tekshiriluvchi ko'zidagi bog'lamni yechib, qanday shaklni idrok qilganligini oldidagi qog'ozga chizib beradi.

Ikkinchi bosqich – harakatlanayotgan shaklni passiv tuyish.

Tekshiruvchi shaklning konturi bo'ylab tekshiriluvchining o'ng qo'li ko'rsatkich barmog'ini bir marta aylantirib chiqadi. So'ngra tekshiriluvchi idrok qilgan shaklni chizib beradi.

Uchinchi bosqich – sun’iy faol tuyish.

Tekshiriluvchi asta-sekinlik bilan o’ng qo’lining ko’rsatkich barmog’i bilan shaklning konturini bir necha marta aylantirib ko’radi. So’ngra idrok qilingan shaklni chizib beradi.

To’rtinchi bosqich – faol tuyish.

Tekshiriluvchi bir qo’li bilan unga tavsiya etilgan shaklni paypaslab ko’radi va idrok qilingan shaklni chizib beradi.

Beshinchi (taqqoslash uchun) bosqich – bimanual (ikki qo’l bilan) tuyish.

Tekshiruvchi tekshiriluvchiga shaklni berib, uni ikki qo’l bilan paypaslab ko’rishga ruxsat beradi. Bunda tekshiriluvchiga uni tuyish jarayonida o’zini qanday his qilganligini, o’ng va chap qo’li ko’proq qanday xususiyatlarni bilayotganligini aytib turadi. So’ngra idrok qilgan shaklni chizib beradi.

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

Shakl raqam i	Tajriba				O’rtacha ball			
	I	II	III	IV	I	II	III	IV
1								
2								
3								

Natijalarni tahlil qilish:

Chizilgan rasmlar 5 balli shkala bo’yicha baholanadi.

5 ball – agar rasm originalga to’la mos kelsa;


4 ball – rasmda ayrim qismlar qisqartirilgan bo’lsa;

3 ball – faqat tomonlar emas, balki burchaklar ham qisqartirilgan bo’lsa;

2 ball – tomonlar, burchaklar qisqartirilgan, ayrim qismlar tushirib qoldirilgan bo’lsa;

1 ball – rasm bilan original shakl o’rtasida hech qanday o’xshashlik mavjud bo’lmasa.

Idrok qilish uchun tavsiya etiladigan shakllar:



3-LABORATORIYA ISHI

Vaqtning idrok qilish.

Maqsad: Vaqtning idrok qilishdagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish.

Material: Sekundomer yoki sekund strelkali soat.

Ishning borishi:

Tekshiriluvchi 3, 5, 10, 17 sekundga to'g'ri keluvchi vaqt birliklarini aniqlashi lozim. Tekshiruvchi stolning ustiga qalamning orqasi bilan urib, vaqtning boshlanishi va tugash nuqtalarini belgilaydi.

Ko'rsatma: «Hozir stol ustiga qalam bilan urib vaqt boshlanganini bildiraman. Yana bir marta stol ustiga qalam bilan urganimga qadar qancha vaqt o'tganligini baholashingiz kerak. Bunda turli vositalardan foydalanish va hisoblab turish ta'qiqlanadi».

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

Tajriba raqami	Tavsiya qilingan qo'zg'ovchi	Tekshiriluvchini ng ko'rsatmasi	Chamalab aytilgan vaqt bilan real vaqt o'rtasidagi farq
1	3		
2	5		
3	10		
4	17		

Natijani tahlil qilish:

Vaqtning idrok qilishning aniq koeffitsiyenti C topiladi.

$$C = \frac{A \cdot 100}{B}$$

Bunda, A – sekund hisobida tavsiya qilingan vaqt bilan tekshiriluvchi ifodalagan vaqt o'rtasidagi farq. B – tadqiqotchi tomonidan tavsiya qilingan vaqt bo'lagi. C ning foizdagi ifodasiga ko'ra vaqtning idrok qilishning aniqligi haqida xulosa chiqariladi.

4-LABORATORIYA ISHI

Xotiradagi individual xususiyatlarni o'rganish.

Maqsad: Xotira tipini aniqlash.

Material: To'rtta so'zlar to'plami.

Inson xotirasining tiplari sof holda juda kam uchraydi. Ko'p hollarda ular bir-biri bilan qo'shilib ketgan bo'lib, ulardan biri boshqasiga nisbatan yetakchilik qilishi mumkin.

Ana shu yetakchi xotira tipini aniqlash uchun qatorning ushlab qolingani a'zolari metodidan foydalaniladi. Bu metodning mohiyatiga ko'ra tekshiriluvchiga qator so'zlar o'qib beriladi, so'zlardan esda qoldirilganlarini qayta esga tushirib aytib berishi kerak. Xotirada qoldirilgan so'zlar soni (m) ni hisoblab, qayta esga tushirish koeffitsiyentini (K) topish mumkin.

$$K_{\text{э.т}} = \frac{m}{N} \cdot 100\%$$

Yetakchi xotira tipini aniqlash uchun qo'zg'atuvchi material turli usulda ko'rsatilishi mumkin. (ko'rish, eshitish, yoki aralash). Tekshiruvchi materialni ko'rsatishi, o'qib berishi, yoki tekshiriluvchiga materialni o'qib berilayotganda pichirlab takrorlab turishi, havoda qo'li bilan yozib turishiga ham ruxsat berilishi mumkin. Har bir sinovdan so'ng tekshiriluvchi eslab qolgan so'zlarini tartibidan qat'iy nazar varaqqa yozib chiqadi.

Tajriba natijalarini tahlil qilishda qayta esga tushirish koeffitsiyenti taqqoslanib, xotiraning yetakchi tipi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Ishning borishi:

Tajriba yakka holda yoki guruh sharoitida o'tkaziladi va u to'rt bosqichdan iborat. Har bir bosqich o'rtasida 10 minutdan tanaffus qilinadi.

Birinchi bosqich.

Tekshiruvchi tekshiriluvchiga so'zlarni o'qib beradi. Har bir so'z o'rtasida 5 sekundlik oraliq mavjud bo'lib, qator o'qib bo'lingandan so'ng tekshiriluvchi bayonnomaga esda olib qolgan so'zlarini yozadi.

Tekshiriluvchiga ko'rsatma: «Men sizga hozir bir qator so'zlarni o'qib beraman. Ularni yaxshilab diqqat bilan eslab qoling. Men bergan buyruqdan so'ng esda qoldirilgan so'zlarni bayonnomaga yozing».

Ikkinchi bosqich.

Tekshiruvchi tekshiriluvchining oldiga 10 ta soʻzni qoʻyadi va unga 10 sekund davomida soʻzlarni oʻqib chiqishga ruxsat beradi.

Tekshiriluvchiga koʻrsatma: «Oldingizda soʻzlar yozilgan varaq turibdi (teskari holda). Mening buyrugʻimdan soʻng 10 sekund davomida uni olib oʻqiysiz, oʻqishni tugatib, yana uni joyiga qoʻyasiz va bayonnomaga eslab qolgan soʻzlaringizni yozasiz».

Uchinchi bosqich.

Tekshiruvchi tekshiriluvchining oldiga yangi soʻzlardan iborat boʻlgan varaqlarni qoʻyadi va unga hamma soʻzlarni ovoz chiqarib oʻqishga ruxsat beradi. Tekshiriluvchi ularni pichirlab oʻqiydi va bayonnomaga esda qoldirgan soʻzlarini yozadi.

Tekshiriluvchiga koʻrsatma: «Oldingizda soʻzlar yozilgan varaq turibdi. Mening buyrugʻimdan soʻng siz uni olib men bilan birga pichirlab oʻqishingiz kerak. Soʻng eslab qolgan soʻzlaringizni bayonnomaga yozasiz».

Toʻrtinchi bosqich.

Tekshiruvchi ovoz chiqarib soʻzlarni oʻqib beradi, tekshiriluvchi uning orqasidan har bir soʻzni qaytaradi va harakat yordamida ularni havoda yozib turadi.

Tekshiriluvchiga koʻrsatma: «Hozir men sizga bir qator soʻzlarni oʻqib beraman. Ularni yaxshilab eslab qolish uchun qaytarishingiz, havoda yozishingiz mumkin. Buyrugʻimdan soʻng eslab qolgan soʻzlaringizni bayonnomaga yozasiz».

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

Tajriba bosqichi	Esda qoldirish usuli	Javoblar		K (%)
		Barchasi	Toʻgʻrisi	
I	Eshitish			
II	Koʻrish			
III	Harakat			
IV	Aralash			

Tavsiya etiladigan soʻzlar toʻplami

1-bosqich uchun.

tanbur
saxovat
meros
vatan
soʻzana
iqtisod
suhbat
gulzor
xotira
qogʻoz

3-bosqich uchun.

koinot
navbahor
marafon
sanoat
telefon
kengash
hissiyot
deraza
mandarin
daftar

2-bosqich uchun.

dengiz
baxt
tabiat
choynak
dazmol
istiqlol
isteʼdod
jadval
madaniyat
diqqat

4-bosqich uchun.

maʼruza
sayohat
qalam
sadoqat
tajriba
Buxoro
tahlil
sovrin
traktor
muhabbat

Qayta esga tushirish koeffitsiyentining foizdagi ifodasiga koʻra xotira tipi haqida xulosa chiqariladi.

5-LABORATORIYA ISHI

Masala yechish usuliga tajribaning ta'sirini o'rganish. (Lachins metodikasi)

Maqsad: Tafakkur rigidligini aniqlash.

Material: Arifmetikaga oid topshiriqlar to'plami.

A.S. Lachins tomonidan ishlab chiqilgan metodika yordamida bir xil tipdagi vazifani yechish jarayonidagi ikki guruh tekshiriluvchilar natijalarini solishtirish orqali fikrlash jarayonidagi rigidlikni aniqlash mumkin. Vazifa shunday tanlanishi kerakki, ularning bir qismi bir usul bilan, qolganlari ikki usul bilan yechiladi.

Tajriba boshlangunga qadar har biri 10 tadan arifmetik vazifadan iborat 2 ta varaqa tayyorlanadi. 1-guruh tajriba, ikkinchisi nazorat guruhi deb qaralib, ularga alohida-alohida vazifalar beriladi. Har ikki guruhdagi tekshiriluvchilar bir-birlariga bog'liq bo'lmagan holda vazifalarni yechishlari kerak bo'ladi. 1-5 vazifalar bittadan yechimga ega, 6-10 vazifalarning esa minimal bitta yechimi bor yoki ratsional yechimga ega emas.

Natijalarni tahlil qilish uchun nechta tekshiriluvchi 6-10 vazifalarni ratsional usul bilan yechganligini hisoblab, foizga aylantirish kerak.

Ko'p hollarda tekshiriluvchi 1-5 vazifalarni bir xil usul bilan yechgandan so'ng 6-10 vazifalarni ham shunday usul bilan yechishga harakat qiladilar, sharoit o'zgarganligini sezmaydilar. Bunda fikrlash jarayonida bilish rigidligi vujudga kelganligini aniqlash mumkin.

Ishning borishi:

Tajribani o'qituvchi olib boradi. Talabalar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi tajriba guruhiga birinchi to'plamdagi vazifalar, ikkinchi – nazorat guruhiga ikkinchi to'plamdagi vazifalar beriladi. Barcha ishtirokchilar vazifalarni navbatma-navbat yechishlari kerak bo'ladi.

Tekshiriluvchiga ko'rsatma: «Qo'lingizdagi varaqda 10 ta arifmetik topshiriq bo'lib, ularni tartib bilan yeching. Qo'lingizdagi varaqqa barcha arifmetik usullarni yozishingiz mumkin. Vazifani yechish vaqti cheklanmagan. Uni mustaqil ravishda boshqalardan ko'chirmay bajarishga harakat qiling».

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

Topshiriq to'plami	Tekshiriluvchilar guruhi	Vazifani yechish			
		Ratsional		Noratsional	
		Abs.	%	Abs.	%
I	Tajriba				
II	Nazorat				

Natijalar tahlili:

1. Barcha tekshiriluvchilar o'z varaqlariga ratsional va noratsional yechimga ega bo'lgan vazifalar sonini belgilashadi. 1-5 topshiriqlar bittadan ratsional yechimga ega. 6-10 vazifalar ikki yoki bir usul bilan yechiladi. Ba'zilari hech qanday usulni talab qilmaydi.

2. Tajriba va nazorat guruhidan 6-10 topshiriqni ratsional usulda yechgan tekshiriluvchilar soni aniqlanadi va bayonnomaga yoziladi.

3. Olingan natijalarning foizdagi ko'rsatkichi hisoblanadi.

Natijalar tahlili asosida tafakkurning rigidligi haqida xulosa chiqariladi.

Lachins metodikasi uchun topshiriqlar to'plami.

Tajriba guruhi uchun:

1. Uchta idish berilgan: 37, 21 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lchash mumkin?

2. Uchta idish berilgan: 37, 24 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lchash mumkin?

3. Uchta idish berilgan: 39, 22 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 13 litr suvni o'lchash mumkin?

4. Uchta idish berilgan: 38, 25 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lchash mumkin?

5. Uchta idish berilgan: 29, 14 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 11 litr suvni o'lchash mumkin?

6. Uchta idish berilgan: 28, 14 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lchash mumkin?

7. Uchta idish berilgan: 27, 12 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lchash mumkin?

8. Uchta idish berilgan: 30, 12 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 15 litr suvni o'lchash mumkin?

9. Uchta idish berilgan: 38, 7 va 5 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 12 litr suvni o'lchash mumkin?

10. Uchta idish berilgan: 29, 10 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lchash mumkin?

Ikkinchi nazorat guruhi uchun:

1. Uchta idish berilgan: 26, 10 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lchash mumkin?

2. Uchta idish berilgan: 28, 7 va 5 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 12 litr suvni o'lchash mumkin?

3. Uchta idish berilgan: 30, 12 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 15 litr suvni o'lchash mumkin?

4. Uchta idish berilgan: 27, 12 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lchash mumkin?

5. Uchta idish berilgan: 28, 14 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lchash mumkin?

6. Uchta idish berilgan: 38, 25 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lchash mumkin?

7. Uchta idish berilgan: 29, 14 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 11 litr suvni o'lchash mumkin?

8. Uchta idish berilgan: 39, 22 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 13 litr suvni o'lchash mumkin?

9. Uchta idish berilgan: 37, 24 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lchash mumkin?

10. Uchta idish berilgan: 37, 21 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lchash mumkin?

6-LABORATORIYA ISHI

Diqqat ko'chuvchanligini o'rganish. (Shult metodikasi)

Maqsad: Diqqat ko'chuvchanligini va bo'linishini aniqlash.

Material: Shult jadvallari (5 ta jadval), sekundomer.

Ishning borishi:

Tajriba o'tkazish uchun 5 ta jadval kerak bo'ladi va jadvallar ketma-ket ko'rsatiladi. Bunda sonlarni tartib bilan izlab topish va ovoz chiqarib aytish kerak. Jadvallarda 1 dan 50 gacha tartibsiz sonlar qayd etilgan. Har bir jadvalga sarflangan ish vaqti sekundomer yordamida aniqlanadi. Ruhiy sog'lom odamlar har bir jadvalga 30-50 soniyadan vaqt sarflaydilar.

Mazkur tadqiqot kichik maktab yoshi o'quvchilarida diqqat xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qimmatli natijalar olishni kafolatlaydi. Faqat bunda 25 ta raqamdan iborat (13 ta qora rang), (12 ta qizil rang) jadvalardan foydalanish kifoya qiladi. 6-7 yoshli bolalar uchun birinchi jadvalni 1-1.5 daqiqa qarash me'yoriy hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun bu me'yor 45 soniyadan 1 daqiqagacha deb belgilangan.

Tekshiriluvchiga ko'rsatma: Birinchi seriyada qora rangdagi sonlarni 1-25 gacha o'sib borish tartibida izlab toping va ovoz chiqarib ayting. Ketgan vaqt sarfi yozib boriladi.

Ikkinchi seriyada qizil rangdagi sonlarni 1-24 gacha o'sib borish tartibida izlab toping va ovoz chiqarib ayting. Ketgan vaqt sarfi yozib boriladi.

Uchunchi seriyada har ikkala rangdagi sonlarni aralashtirib tartib bilan izlab toping va ovoz chiqarib ayting. Ketgan vaqt sarfi yozib boriladi. Jami 49 ta son.

Har bir topshiriqni bajarish xususiyatlariga hamda 5 ta jadval bo'yicha olingan natijalar tahlil qilinib, tadqiqotchi nerv jarayonlari o'sishini, jismoniy va ruhiy zerikish hodisasini aniqlaydi. Masalan, agar har bir keyingi topshiriqni bajarish vaqti oshib borsa, tez charchash, ixtiyoriy diqqat darajasining susayganligidan dalolat beradi.

Shult jadvalidan foydalanishda tadqiqot qarori.

№ jadval	Topshiriqni bajarish xususiyatlari	Vaqt (soniya)
1		
2		
3		
4		
5		

Shult metodikasini hisoblash formulasi

$$T=T_3-(T_1+T_2)$$

T= ketgan vaqt sarfi

Izoh: ketgan vaqt sarfi sekundlarda hisoblanadi. Masalan 75 sek(19+15)75-34=41 soniya kabi.Hatolar soni qayd etib boriladi. Masalan: sonlarni topishda ikkita xato qildi kabi.

Mazkur tadqiqotni individual olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin ma'lum bir guruh a'zolarida tadqiqot olib borish uchun guruhning har bir a'zosidan alohida natijalar olish, natijalarning xolisligini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari umumlashtirilib, ma'lum bir xulosalarga kelinadi.

Tadqiqot bayonnomasini to'ldirish na'munasi:

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

№	F.I.SH	Tadqiqot bosqichlari											Yakuniy sifat ko'rsat- kichning o'rtacha qiymati
		1 seriya		2-seriya		3 seriya		Jadvallarning o'rtacha vaqt ko'rsatkichlari					
		So- niya	Ha- to	So- niya	Ha- to	So- niya	Ha- to	1	2	3	4	5	
1	Aliyev A												
2	Zufarov B												
3	Majidov J												
4	Qodirov Sh												
5	Bosimova B												

Shult jadvali namunasi

7	4	10	6	22	24	12
17	13	19	8	2	16	19
11	1	20	15	21	23	3
9	6	17	5	18	12	24
14	25	13	9	20	1	7
21	3	23	8	15	14	18
16	5	11	2	22	4	10

Eslatma: Jadvalni ko'paytirish sonlarning ixtiyoriy kombinatsiyasi orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

7- LABORATORIYA ISHI

Mavzu:Shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi. (7- 8- mashg'ulotlar).

(T.Lirining «Nizoli vaziyatga munosabat tavsifi» metodikasi)

Maqsad: Shaxsning nizoli vaziyatlarga munosabatini o'rganish.

Material:T.Lirining «Nizoli vaziyatga munosabat tavsifi» metodikasi

T.Liri metodikasining qulay jihatlari uning tarkibiga kiruvchi savollarning (114 ta xarakterologik xususiyatlardan tarkib topgan) tizimlashganligi va ularning bir necha omillar asosida (8 ta psixologik tendensiyalarga) tahlil etish mumkin. T.Liri metodikasidagi oktantlarning har biri o'zida bir necha darajani (to'rt daraja) ifoda etgan bo'lib, ularda quyi, o'rta, yuqori va ekstremalga ajratiladi. Shuningdek, metodikada:

I. Liderlikka moyillik, hukmronlik, zulmkor

II. O'ziga ishonch-o'zini yaxshi ko'rish

III. Talabchanlik-murosasiz, shafqatsiz

IV. Ishonchsizlik (skeptizm)- qaysar-salbiylik (negativizm)

V. Yon berishlik-beozor-passiv bo'ysunuvchanlik

VI. Ishonuvchanlik-itoatkorlik-tobelik

VII. Ko'ngilchanlik-mustaqil emas, haddan tashqari yon beruvchan

VIII. Rahmdillik-beg'arazlik-fidokorlik singari oktantlar bilan bir qatorda shaxsning psixologik qiyofasini (profilini) ochib berishga yordam beruvchi ikkita omilga tayanishini ham aytib o'tish joiz. Chunonchi ular, ustunlik yoki yetakchilik (dominantlik) hamda do'stonalik omillaridir. Shaxsiy qiyofani ifodalashda esa diskogrammadan foydalaniladi. Shuningdek, metodika natijalarini sharhlash uchun qulaylikni hisobga olgan holda ularning balli darajalarini aks ettiruvchi quyidagi jadvalni taqdim etishni lozim topdik. Jadvalda har bir oktant natijalari ballar bo'yicha nimani ifodalashi keltirilgan:

T.Liri testining sifatlarni baholash jadvali

Oktantlar	Munosabatlar	Tekshiriluvchilar to'plagan ball miqdori			
		3-4	5-8	9-12	13-16
I	Liderlikka moyillik.	Maslahatlar berishga	Tashkilotchilikka	Tanqidlarni	Fikrlari qotib

	Hukmronlik	intiluvchan	qobiliyatli	qabul qila olmaydi	qolgan va zulmkor
II	O'ziga ishonch-o'zini yaxshi ko'rish	Ishonchli, mustaqil	Raqobatlashishga qobiliyatli	Guruhda ajralib turuvchi	Kibr-havolik, mag'rurlanish
III	Talabchanlik murosasiz, shafqatsiz	Ochiqlik, bevositalik	Qat'iylik	Haddan ortiq o'jarlik	O'zini tuta olmaydigan. Jahli tez
IV	Ishonchsizlik, qaysarsalbiy	Real mulohazolovchi	Shubha bilan qarovchi, conformlikka moyil emas	Xafa bo'luvchi, ishonchsiz, tanqid qilishga moyil	Atrofdagilardan norozi, shubhalanuvchan
V	Yon berishlik-passiv bo'ysunuvchanlik	Muloyimlik, tortinchoqlik	Begonalarining majburiyatlarini o'z zimmasiga oluvchan	Aybni o'z zimmasiga oluvchan, o'zini-o'zi kamsituvchan	Butunlay ko'ngilchan
VI	Ishonuvchanlik-itoatkorlik	Atrofdagilarni ishonchiga kirishga ehtiyoji bor	Yordamga muhtoj	Yuqori konformlikka moyil	Atrofdagilarning fikrlariga bog'lanib qolgan
VII	Ko'ngilchanlik haddan tashqari yon beruvchi	Guruh bilan hamkorlikka intiluvchan	Xayrixoh	Murosakor	Xayrixohligini ochiq izhor etuvchan
VIII	Rahmdillik fidokorlik	Atrofdagilarni tushunuv-	Muloyim ko'ngilli, o'ta mas'u-	Yuqori ijtimoiy ustunov-	Fidoyi

		chan va ularga yordam ko'rsatishga shay	liyatli	kalarga ega	
--	--	---	---------	----------------	--

$$-\text{DOMINANTLIK}=(\text{I-V})+0,7x(\text{VIII-II-IV-VI})$$

$$-\text{DO'STONALIK}=(\text{VII-III})+0,7x(\text{VIII-II-IV+VI})$$

OKTANT №	T. Liri so'rovnomasining kaliti Savollar nomeri
I	3,10,11,19,20,22,24,30,33,40,50,64,83,86,105,1
II.	2,12,16,28,32,47,56,69,72,74,78,79,93,104,118,
III.	5,15,17,37,52,53,54,63,66,99,106,108,115,116,1
IV.	4,6,34,35,38,51,57,59,60,62,68,89,90,114,119,1
V.	18,27,41,44,45,48,61,65,77,96,100,101,112,117,
VI.	7,8,9,14,25,31,39,58,75,82,85,87,95,110,111,12
VII.	1,36,43,55,68,71,73,76,81,84,94,97,102,107,109
VIII.	13,21,23,26,29,42,46,49,67,70,80,91,92,98,103,

Ishning borishi:

O'qituvchi tomonidan Liri metodikasi yo'riqnomasi talabalarga tushuntirilib, metodika namunasi tarqatiladi.

Yo'riqнома: quyida keltirilgan tasdiqlar qanchalik sizning xatti-harakatingiz, xulq-atvoringiz, boshqalarga munosabatingizni ifodalashiga ko'ra, mos yoki mos kelmasligini baholang. Agar mos kelgan hollarda «ha», «yo'q» javobini bering. Javoblaringizni maxsus javoblar varaqasiga belgilang. Yakunida quyidagi formula asosida munosabat tavsifini qiymatini aniqlang. Qiymat ko'rsatkichidagi quyidagi jihat-larning biri ustun ekanligini aniqlab beradi.

$$-\text{DOMINANTLIK}=(\text{I-V})+0,7x(\text{VIII-II-IV-VI})$$

$$-\text{DO'STONALIK}=(\text{VII-III})+0,7x(\text{VIII-II-IV+VI})$$

«Nizoli vaziyatga munosabat tavsifi» metodikasi javoblar varaqasi

1	2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15	16

17		18		19		20		21		22		23		24	
25		26		27		28		29		30		31		32	
33		34		35		36		37		38		39		40	
41		42		43		44		45		46		47		48	
49		50		51		52		53		54		55		56	
57		58		59		60		61		62		63		64	
65		66		67		68		69		70		71		72	
73		74		75		76		77		78		79		80	
81		82		83		84		85		86		87		88	
89		90		91		92		93		94		95		96	
97		98		99		100		101		102		103		104	
105		106		107		108		109		110		111		112	
113		114		115		116		117		118		118		120	
121		122		123		124		125		126		127		128	

Tadqiqot bayonnomasini to'ldirish namunasi.

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

№	F.I.SH	Munosabatlar oktanti (yetakchi)	Munosabat tavsifi (qiymati). Dominantlik, do'stonalik
1	Aliyev A	I	Dominantlik (1)
2	Zufarov B	V	Dominantlik (-0,25)
3	Majidov J	VII	Do'stonalik (1.7)
4	Qodirov Sh	IV	Do'stonalik (-1.3)
5	Bosimova B	VIII	Do'stonalik (0.8)

Natijalarni hisoblash jarayonida 2 va undan ortiq oktantlarda bir xil ballar qayd etilsa, biroz fursatdan so'ng qayta tadqiqotni amalga oshirish natijaviylikning xolisligini ta'minlaydi.

Tadqiqot so'ngida individual va guruh natijalar ko'rsatkichi umumlashtirilib, ma'lum bir xulosalarga kelinadi.

**T.Lirining «Nizoli vaziyatga munosabat tavsifi» metodikasi
savolnomasi matni.**

1. O'zaro yordamga hamkorlikga qobiliyatli.
2. O'ziga ishongan.
3. Boshqalar hurmatini qozongan.
4. Uning ustidan hukmronlikni yoqtirmaydi.
5. Ochiq ko'ngil.
6. Shikoyatchi arzchi.
7. Ko'pincha boshqalar yordamiga muhtojlik sezadi.
8. Rag'batga muhtoj.
9. Ishonuvchan va boshqalarga quvonch ulashishga intiladi.
10. Mas'uliyatni yoqtiradi.
11. Salobatli ko'rinadi.
12. Hamiyatli (o'z qadr-qimmatini biladi).
13. Ruhlantiruvchi.
14. Yaxshilikni biluvchi.
15. Jahldor, shafqatsiz.
16. Maqtanchoq.
17. O'zini o'ylovchi.
18. Nohaqlikni tan olishga qodir.
19. Zolim (mustabid).
20. O'z fikrida tura oluvchi.
21. Bag'ri keng, nuqsonlarga bardoshli.
22. Amirona-kekkeygan.
23. Homiylik qilishga moyil.
24. Hayratlantirishga qodir.
25. Boshqalarga qarorlar qabul qilishga imkon beruvchi.
26. Kechiruvchan.
27. Beozor.
28. Loqayd bo'lishi mumkin.
29. Beg'araz.
30. Maslahat berishni yoqtiruvchi.
31. Yordamga muhtoj, mustaqil emas.
32. O'ziga ishonuvchan va tirishqoq.
33. Har kimdan hayratlanishni kutuvchi.
34. Ko'pincha xomush.
35. Unga ta'sir o'tkazish qiyin.
36. Dilkash va murosali.
37. To'g'riso'z va cho'rtkesar.

38. Alamzada (jahldor).
39. Tobelikni yoqtiradi.
40. Boshqalarga hukmron.
41. O'ziga tanqidiy bo'lishga qodir.
42. Ko'ngli ochiq, saxiy.
43. Muomalada doim xushmuomala.
44. Yon beruvchi (Kelishuvchan).
45. Uyatchang. Tortinchoq.
46. Boshqalarga g'amxo'rlikka moyil.
47. Shaxsiyatparast (faqat o'zini o'ylaydi).
48. Ko'ngilchan.
49. Muhtojlarga hamkor.
50. Buyruq berishga uddaburon.
51. Ko'pincha hafsalasi pir bo'ladi.
52. Bir so'zli, lekin adolatli.
53. Ko'pincha adolatli.
54. Boshqalarga tanqidchan.
55. Doim xayrixoh.
56. Noxolisona baholovchi odam.
57. Ishonchsizlik to'g'irishga moyil.
58. Baobro' ishonuvchan.
59. Rashkchi.
60. Dod-voy qilib yurishni yoqtiradi.
61. Tortinchoq.
62. Arazchan va injiq.
63. Ko'pincha xayrixoh emas.
64. Hukmron.
65. Tashshabbuskor emas.
66. Qattiqqo'llikka moyil.
67. Xushmuomala.
68. Hammani yoqtiradi.
69. Tadbirkor, omilkor.
70. O'ta rahmdil.
71. E'tiborli va yoqimli.
72. Ayyor va pishiq.
73. Atrofdagilar fikrini qadrllovchi.
74. Takabbur va mag'rur.
75. O'ta ishonuvchan.
76. Har kimga ishonishga tayyor.

77. Xijolatpaz.
78. Mustaqil.
79. Xudbin.
80. Nozik ta'b, ko'ngilchan.
81. Boshqalar ta'siriga beriluvchan.
82. Hurmatli.
83. Boshqalarda taassurot uyg'otuvchi.
84. Yumshoqko'ngil.
85. Maslahatlarni qabul qiluvchi.
86. Rahbarlik talantiga ega.
87. Noqulaylikka tez tushuvchi.
88. Hafagarchilikni eslab yuruvchi.
89. Do'stlar ta'siriga beriluvchan.
90. Qarama-qarshilik ruhiga moyil.
91. Ortiqcha ko'ngilchanligi bilan odamlarni buzadi.
92. Atrofdagilarga o'ta muruvvatli.
93. Shuhratparast.
94. Har kimning ko'nglini olishga intiluvchan.
95. Hayratlanuvchi, taqlidga moyil.
96. Jon deb bo'ysunuvchi.
97. Hamma bilan kelishuvchan.
98. O'zining zarari hisobiga, boshqalarga g'amho'r.
99. Jizzaki.
100. Uyatchang.
101. Bo'ysunishga o'ta tayyorligi bilan farqlanuvchi.
102. Do'stona, xayrixoh.
103. Saxovatli ishonch tug'diruvchi.
104. Sovuq, bag'ritosh.
105. Muvaffaqiyatga intiluvchi.
106. Boshqalar xatosiga beshafqat.
107. Hammaga bir xil iltifotli.
108. Qattiqqo'l, lekin adolatli.
109. Hammaga mehr-muhabbatli.
110. G'amxo'rlik qilishlarini yoqtiradi.
111. Deyarli, hech kimga e'tiroz bildirmaydi.
112. Yumshoq, ko'ngilchan.
113. Boshqalar u haqida yaxshi fikrdalar.
114. Qaysar, o'jar.
115. Kerak bo'lganda sabotli va keskin.

- 116. Samimiylikka moyil.
- 117. Kamtar.
- 118. O'z-o'ziga murruvatli bo'lishga qobil.
- 119. Sershubha.
- 120. Zahar tilli, istehzoli.
- 121. Shilqim.
- 122. Kek saqllovchi.
- 123. Musobaqalashishni yaxshi ko'radi.
- 124. Boshqalar bilan chiqishishga intiluvchan.
- 125. O'ziga ishonchsiz.
- 126. Har kishiga tasalli berishga intiladi.
- 127. O'z-o'zini qiynovchi (ichidan siqilib yuruvchi).
- 128. Hissiz. Loqayd.

8-LABORATORIYA ISHI

Shaxsning muloqatchanlik sifatlarini o'rganish (V.F.Ryaxovskiy so'rovnomasi)

Maqsad: Shaxsda muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash.

Material: V.F.Ryaxovskiy muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash so'rovnomasi matni

Ishning borishi:

Ishning boshida o'qituvchi tomonidan so'rovnoma ro'g'risida quyidagi ma'lumotlar: mazkur so'rovnoma V.F.Ryaxovskiy tomonidan ishlab chiqilganligi, katta yoshdagilar uchun ham muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash maqsadida qo'llanilishi to'g'risida talabalarga tushunchalar berib o'tiladi. Shundan so'ng sinaluvchiga quyidagi ko'rsatma beriladi: «Sizning e'tiboringizga bir qator oddiy savollar havola etiladi. Siz ularga «ha», «yo'q», «ba'zida» deb javob qaytarishingiz mumkin. Savollarga tez, ko'p o'ylamay javob berishingiz talab etiladi.

V.F.Ryaxovskiy so'rovnomasi javoblar varaqasi

Savollar	Tasdiqlar		
	Ha	Ba'zida	Yo'q
№ 1			
2			
3			
4			
5			
6			
7			
8			
9			
10			
11			
12			
13			
14			
15			
16			

Natijalarning ball ko'rsatkichi:

Har bir «ha» degan javob uchun 2 ball qo'yiladi.

Har bir «ba'zida» degan javob uchun 1 ball qo'yiladi.

Har bir «yo'q» degan javob uchun 0 ball qo'yiladi.

Talabalarga tadqiqotni dastlab o'zida so'nra guruh a'zolarida olib borish uchun ruxsat beriladi. Birlamchi natijalar olinganidan so'ng tadqiqot bayonnonmasi tuziladi.

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

№	F.I.SH	To'plangan ball miqdori	Muloqatchanlilik xususiyatlari
1	Aliyev A	27	
2	Zufarov B	18	
3	Majidov J	30	
4	Qodirov Sh	14	
5	Bosimova B	15	

Natijalar tahlili

30 – 32 ball. Muloqotchanlik darajasi ancha past. Bu sizdagi jiddiy muammo. Chunki bundan avvalo o'zingiz aziyat chekasiz. Biroq yaqinlaringizga ham oson tutib bo'lmaydi. Hamkorlikdagi faoliyatni talab qiluvchi ishni sizga ishonib topshirib bo'lmaydi. Muloqotchanroq bo'lishga, o'zingizni boshqarishga harakat qiling.

25 – 29 ball. Siz yolg'izlanishni yaxshi ko'rasiz, shuning uchun do'stlaringiz kam. Notanish odamlar bilan tanishish, notanish joylarga borish zarurati halovatingizni buzadi. Siz o'zingizning bu xususiyatlaringizni bilasiz va o'zingizdan norozi ham bo'lasiz. Lekin faqat norozilik bilan cheklanmang – xarakteringizni o'zgartirish o'z qo'lingizda. Eslab ko'ring: birorta ishga qiziqib ketganingizda ancha muloqotchang bo'lib qolasiz-ku!

19 – 24 ball. Siz ma'lum darajada muloqotchansiz va notanish vaziyatda o'zingizni yo'qotib qo'ymaysiz. Yangi muammolar sizni qo'rqitmaydi, ammo notanish odamlar bilan muloqot qilishda ancha ehtiyotkorsiz, bahs – munozaralarga bajonidil qo'shilmaysiz. Ba'zida

gaplaringizda zaruratsiz kinoya – kesatiq ko'payib ketadi. Biroq bu kamchilikni tuzatsa bo'ladi.

14 – 18 ball. Siz yetarlicha muloqotchansiz, qiziquvchansiz, suhbatdosh qiziq narsalar haqida gapirganda, uni diqqat bilan tinglaysiz. Muloqotda ancha sabrlisiz, o'z nuqtayi nazarinigizni hissiyotga berilmay himoya qilasiz. Notanish odamlar bilan suhbatlashishga to'g'ri kelganda, bezovta bo'lmaysiz, ayni paytda shovqin-suron davralarni yoqtirmaysiz, birovning bachkana qiliqlari va ko'p gapirishi g'ashinigizga tegadi.

9 – 13 ball. Siz juda muloqotchansiz (ba'zida me'yoridan ortiq), qiziquvchan, gapdonsiz, har xil masalalar bo'yicha o'z fikringizni bildirishni yaxshi ko'rasiz, bu esa ba'zida atrofdagilarning g'ashiga tegadi. Notanish odamlar bilan bajonidil tanishasiz, odamlarning diqqat markazida bo'lishni yoqtirasiz. Hech kimning iltimosini yerda qoldirmaysiz, lekin berilgan hamma va'dalarni bajara olmasligingiz mumkin. Ba'zida jahl ustida qattiq gapirib yuborasiz, biroq tezda jahlingizdan tushasiz. Jiddiy muammolar bilan to'qnashganda sizga sabr-toqat yetishmaydi. Ammo, xohlasangiz hech qanday muammo oldida taslim bo'lmasligingiz mumkin.

4 – 8 ball. Siz juda muloqotchansiz, gapingiz ichingizga sig'maydi. Doim hamma voqealardan xabardorsiz, har xil bahs-munozara, tortishuvlarda qatnashishni xush ko'rasiz, lekin jiddiy mavzular sizni zeriktirib yuborishi mumkin. Biror masala bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lmasangiz ham, bu masala yuzasidan so'zga chiqishga doim tayyorsiz. Hamma joyda o'zingizni erkin his etasiz, har qanday ishga kirishib ketaverasiz, ammo har doim ham uni oxirigacha yetkazmaysiz. Shuning uchun rahbariyat va hamkasblar sizga biroz xavotir va shubha bilan qaraydilar. Bu xususiyatlaringiz haqida bosh qotirib ko'ring.

3 va undan kam ball. Sizning muloqotchanlik darajangiz me'yordan ortiq darajada yuqori. Juda sergapsiz, sizga aloqasi bo'lmagan ishlarga aralashaverasiz, hal etishga qurbingiz yetmaydigan muammolarni bartaraf etishga kirishaverasiz, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda har xil nizolarning kelib chiqishiga sababchi bo'lib qolasiz. Ancha xafalanuvchan, jazavaga moyilsiz, jiddiy ishni sizga topshirmagan ma'qul. O'zingizning ustingizda, xarakteringiz ustida ishleng. Avvalo o'zingizda sabr-toqatni, vazminlik va bosqlikni tarbiyalang, boshqalarga hurmat ko'zi bilan qarashni o'rganing. Eng muhimi, o'z sog'ligingiz haqida qayg'uring. Ishoning, bunday hayot tarzining oqibatlari jiddiy bo'lishi mumkin.

V.F.Ryaxovskiy so'rovnomasi matni.

1. Sizni oddiy yoki ish bilan bog'liq uchrashuv kutib turibdi. Uchrashuv vaqtini kutish sizni asabiylashtiradimi?

2. Sizga biror majlis, anjuman yoki shu kabi boshqa tadbirda nutq so'zlash, ma'ruza o'qish, axborot yetkazish topshirilsa, bunda halovatingizni yo'qotib, bezovta bo'lasizmi?

3. Shifokor qabuliga borishni kasal zo'rayib ketguncha cho'zib yuradigan odatingiz bormi?

4. Sizni boshqa shaharga mehnat safariga jo'natishmoqda. Siz avvallari hech qachon bu shaharda bo'lmagansiz. Siz bor imkoniyatingizni ishga solib, ushbu mehnat safaridan qutilib qolishga urinasizmi?

5. O'z kechinmaliringizni birovga u kim bo'lishidan qat'iy nazar gapirib berishni yoqtirasizmi?

6. Ko'chada notanish odam sizga iltimos bilan (yo'lni ko'rsatib yuborish, vaqtini aytib yuborish va boshqa iltimoslar) murojaat qilishi joningizga tegadimi?

7. Har xil avlod vakillari, haqiqatdan ham, bir-birini tushunishi qiyin, deb o'ylaysizmi?

8. Tanishingiz bir necha oy avval sizdan qarz olgan bo'lsa, unga pulni qaytarish iltimosi bilan murojaat qilishga uyalasizmi?

9. Restoran yoki kafeda sizga sifatsiz taom keltirildi. Siz indamay likopchani jahl bilan bir chetga surib qo'yasizmi?

10. Notanish odam bilan yolg'iz qolganda, siz suhbatga kirishmaysiz, o'zingiz gap boshlamaysiz. Shundaymi?

11. Siz borgan joyda odamlar uzun navbat hosil qilib turishgan bo'lsa (masalan, do'konda, kutubxonada, kassada) niyatingizdan qaytmay, qator oxiriga kelib turarmidingiz?

12. Nizoli vaziyatlarni hal etish bilan shug'ullanuvchi biror komissiya ishida qatnashish sizni cho'chitadimi?

13. Siz san'at asarlariga, badiiy asarlarga baho berishda boshqalarning fikr-mulohazalarini e'tiborga olmaysiz. Shundaymi?

14. Siz yaxshi bilgan biror masala bo'yicha birov aniq xato gapirayotgan bo'lsa, bu odam bilan bahslashmasdan indamay qo'ya qolasizmi?

15. Ish yoki o'qish yuzasidan birov muayyan muammoni hal etishda yordam berishingizni iltimos qilganda, ensangiz qotadimi?

16. Fikringizni og'zaki aytgandan ko'ra yozma tarzda bildirishni ma'qul ko'rasizmi?

9-LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Shaxsning kasbiy qiziqishlarini aniqlash metodikalari (Xolland testi)

Maqsad: O'quvchilarning kasbiy qiziqish sohasini aniqlash.

Material: Xolland testi matni.

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'limni isloh qilish bo'yicha ko'pgina qaror va qonunlar qabul qilindi, ularda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish vazifalari ham yetarlicha o'z ifodasini topmoqda. Bunga Xalq ta'limi vazirligining 2002 yil 10 oktyabrdagi 153-sonli buyrug'i asosida o'quvchilarni kasb - hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirishning yangi konsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad – o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir.

Insonning ilmga bo'lgan chanqoqligini qondiruvchi birinchi ziyo chashma bu maktabdir. Maktabda o'quvchi shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Unda dastlabki kasbiy hissiyotlar yuzaga keladi. Bular mehnatsevarlik, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o'z ishini rejalashtira va nazorat qila bilish, ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish, iqtisodiy – tejamkorlik, sabr – toqatlilik, talabchanlik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usuli (yetti o'lchab, bir kes) tanlab ola bilish hamda vaqtni tejash va shu kabillardir. Bolalarni kasblar olamiga asta – sekin olib borish, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatish zarur.

O'qituvchi darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi xususiyatlarini qobiliyat, qiziqish, moyilliklarni payqab oladi, bu xislat va fazilatlarini shakllantirib boriladi. Bular kasbni belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin. Bolaning kasbiy muhim hislat va fazilatlarini barvaqt aniqlash va keyingi o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Xolland metodikasi o'quvchilarning qaysi kasb sohasini afzal ko'rishini aniqlashga imkon beradi. Kasbiy muhit sohalari olti turga ajratiladi: realistik yoki amaliy; intellektual; ijtimoiy; konvensional yoki standart, uddaburon; artistik.

O'quvchilar e'tiboriga 42 juft kasb havola etiladi. Bundan o'quvchilar har juftlikdan faqat bitta, ya'ni o'zi istagan yoki unchalik «yomon» bo'lmagan kasbni tanlashga majbur.

Ushbu metodika ayni bir vaqtda ham diagnostik, ham faollashtiruvchi hisoblanadi: unga ilova qilinadigan kasb-hunar lug'ati o'quvchilarning kasb-hunar haqidagi tasavvurini kengaytiradi, o'quvchilarga ayni bir kasb doirasida xilma-xil kasbiy muhit mavjudligini his qilish imkonini beradi (masalan, «huquqshunos» kasbi advokat, tergovchi, notarius, huquqshunos maslahatchi, jinoyat qidiruv inspektori, sudyani birlashtiradi).

Metodikaning afzal jihatlaridan biri shundan iboratki, bunda olingan natijalarni osonlik bilan qayta ishlash mumkin. Bu esa olingan natijalar asosida o'quvchi bilan uning kasbiy maqsadlari va shaxsidagi ustuvor yo'nalishlar haqida darhol suhbatlashish imkonini beradi.

Ishning borishi:

O'quvchilarga quyidagicha ko'rsatma beriladi:

Deylik, siz tegishli yo'nalishda ta'lim olganingizdan keyin har qanday ishni bajara olasiz. Quyida taqdim etilgan kasblar juftidan siz o'zingizga eng ma'qul kelganlarini tanlang (kasblarni qobiliyat va imkoniyatingizdan kelib chiqqan holda tanlang). Kasb nomi qatorida qavsda kod ko'rsatilgan Javoblar blankasida tanlangan kasb kodi qarshisiga «Q» ishorasini qo'ying (kasblar ro'yxatiga qarang). Javoblaringizni natijalarini qayta ishlash blankasiga belgilang.

Javoblar va natijalarni qayta ishlash blankasi

Kasb kodi	Tanlash (qo'shuv ishorasi bilan belgilanadi (Q))	Qo'shuv ishoralar soni
1		
2		
3		
4		
5		
6		

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

№	F.I.SH	To'plangan (Q+) lar miqdori	Kasbiy toifasi
1	Aliyev A	10	1.Realist yoki amaliyotchi (mexanik, elektrik, muhandis, agronom, bog'bon, qandolatchi, oshpaz)
2	Zufarov B	11	3.Ijtimoiy (ta'lim, davolash, xizmat ko'rsatish sohalari)
3	Majidov J	10	3. Ijtimoiy (ta'lim, davolash, xizmat ko'rsatish sohalari)
4	Qodirov Sh	11	6.Artistik (aktyorlik, sahna ishlari, musiqa yaratish va ixtirochilik faoliyati)
5	Bosimova B	13	2.Intellektual (botanik, fizik, faylasuf, dasturchi)

Olingan natijalarga ko'ra aniqlangan yetakchi kasbiy toifalar asosida o'quvchining kasbiy qiziqish, qobiliyat va imkoniyatlari baholanadi va shu asosda kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish yo'nalishlari belgilanadi.

Kasbiy toifalar

1. Realist yoki amaliyotchi. Ushbu toifadagi kasb egalari aniq masalalar bilan mashg'ul bo'ladi va aniq narsalardan foydalanadi. Ular chaqqonlik va jismoniy kuchni talab etuvchi mashg'ulotlarni yoqtiradi. Asosan amaliy mehnat qilishni va o'z faoliyatda natijaga tez erishishni afzal bilishadi.

Intellektual sohada ko'proq matematik qobiliyatga ega. Ularda odamlar bilan muloqotga kirishish, o'z fikrlarini erkin bayon etish qobiliyati ancha sust rivojlangan bo'ladi.

Bu toifadagi odamlar ko'pincha mexanik, elektrik, muhandis, agronom, bog'bon, qandolatchi, oshpaz bo'lib ishlashni ma'qul ko'radilar va aniq vazifalarni hal etishni, ko'p harakatlanishni, tirishqoqlikni taqozo etuvchi, texnika bilan bog'liq kasblarni tanlaydi.

Ular faoliyatida muloqotga kirishish yetakchi o'rin egallamaydi, ularning faoliyati ko'proq ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

2.Intellektual. Bu toifadagi kasb egalari boshqa kishilardan masalalarni chuqur tahlil qilishi, oqilona ish yuritishi, mustaqilligi va o'ziga xosligi bilan alohida ajralib tursalar-da, lekin ular ijtimoiy me'yorlarga qat'iy amal qilishga unchalik moyil emaslar.

Ularda matematikaga bo'lgan qobiliyat yaxshi rivojlangan, ular o'z fikrlarini juda yaxshi bayon eta oladi, mantiqiy va mavhum masalalarni yecha biladi.

Bu toifadagi insonlar ilmiy-tadqiqot yo'nalishidagi, ya'ni ijodiy qobiliyat va nostandart fikrlashni talab etuvchi kasblarni afzal bilishadi: botanik, fizik, faylasuf, dasturchi va boshqalar.

3.Ijtimoiy. Ushbu toifadagi kasb egalari insonparvar, hissiyotli va faol shaxslar bo'lib, ijtimoiy me'yorlarga ko'proq amal qiladi. Ular o'zgalarga hamdard bo'la oladi, boshqalarning ichki kechinmalarini yaxshi tushunadi va ularning qalbiga yo'l topa oladi. Odamlar bilan oson muloqotga kirishadi, o'z fikrlarini bayon etishda qiynalmaydi.

Ularda matematikaga bo'lgan qobiliyat ancha sust rivojlangan. Bu toifadagi insonlar faoliyati asosan boshqa kishilar bilan hamkorlikda ishlash, odamlarga ta'lim berish va ularning xulq-atvorlarini nazorat qilishga qaratiladi. Ular asosan ta'lim, davolash, xizmat ko'rsatish sohalarida va odamlar bilan doimo munosabatda bo'lishni talab etuvchi boshqa yo'nalishlarda xizmat qiladi.

4.Konvensional yoki standart. Bu toifadagi kasb egalari amaliy faoliyatni, aniqlikni yoqtiradi. Ular ijtimoiy me'yorlarga amal qiladi, o'ylagan ishini oxiriga yetkazmasdan qo'ymaydi, tirishqoq va shiddatli va baquvvat bo'ladi. Belgilar olamiga qiziqadi, ko'pincha tevarakatofning xususiyatlarini belgilar tizimida ifodalay oladi. Ular aniq faoliyat yo'nalishini afzal biladi, maqsad va vazifalarni shart-sharoitga qarab belgilaydi. Ularning kasbiy faoliyati asosan idora va hisob-kitob ishlari, hujjatlar tuzish va ularni rasmiylashtirish, sonlar, shartli belgilar tizimi o'rtaidagi miqdoriy va sifatiy munosabatlarni aniqlash bilan uzviy bog'liq bo'ladi; ular hisobchi, agent, notarius, topograf, korrektor bo'lib faoliyat ko'rsatishni, shartli belgilar, raqamlar, formulalar, matnlar tarzida berilgan axborotlarni qayta ishlashni ma'qul ko'radilar.

Faoliyatning bunday turlarida muloqot sohasi ancha cheklangan. Ularda kommunikativlik va tashkilotchilik qobiliyati sust, ammo ijrochilik sifatleri yaxshi rivojlangan.

5.Uddaburon. Bu toifadagi kasb egalari topqir, amaliyotchi, murakkab sharoitlarda tez yo'nalish ola biladi, mustaqil qarorlar qabul qilishga, ijtimoiy faollik ko'rsatishga, yetakchilik qilishga moyil, sarguzashtlarga juda qiziqadi. Ularda boshqalar bilan muloqot qila bilish qobiliyati kuchli rivojlangan bo'ladi.

Diqqat-e'tibor va sabr-toqatni talab etadigan ishlarga xohishlari yo'q. Ular tashkilotchilik qobiliyatini, kuch-qudratini namoyish etishga imkon beradigan faoliyat turlarini afzal bilishadi. Tovarshunos, direktor, jurnalist, telereportyor bo'lib ishlash va har xil sharoitlarda turli toifadagi odamlar bilan muloqot qilishni, boshqarishni, rahbarlik qilishni talab etuvchi kasblar ana shunday faoliyatni taqozo etadi.

Bunday toifadagi kasb egalari odamlarga o'z e'tiqodi bilan ta'sir ko'rsata oladi. Ular har doim o'z ishlaridan qoniqmaydilar.

6. Artistik Ushbu toifadagi kasb egalari o'ziga xos, mustaqil qaror qabul qiladi, kamdan kam hollarda ijtimoiy me'yorlarni qo'llab-quvvatlaydi va ma'qullaydi, hayotda o'z shaxsiy (ko'pincha juda murakkab) qarashiga ega, hayollari yuksak, tez fikrlaydi, yuqori hissiy sezgirlikka ega.

Atrofidagi shaxslar bilan o'z sezgisi, his-tuyg'usi, tasavvur va intuitsiyasiga asosan munosabat o'rnatadi. Yaxshi reaksiyaga, munosabat o'rnatish olish va idrok etish qobiliyatiga ega. Boshqalar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyati ancha rivojlangan.

Ularning kasbiy mahorati ko'p darajada aktyorlik, sahna ishlari, musiqa yaratish va ixtirochilik faoliyati bilan uzviy bog'liq.

XOLLAND TESTI

Kasblar ro'yhati

- | | |
|------------------------|-------------------------------|
| 1. Muhandis(1) | Sotsiolog (2) |
| 2. Qandolatchi(1) | Taqvodor 3) |
| 3. Oshpaz(1) | Statist (4) |
| 4. Suratlash(1) | Savdo zali ma'muri (5) |
| 5. Mexanik(1) | Bezakchi 6) |
| 6. Faylasuf(2) | Shifokor (3) |
| 7. Ekolog(2) | Hisobchi 4) |
| 8. Dasturchi(2) | Advokat (5) |
| 9. Kinolog(2) | Badiiy adabiyot tarjimoni (6) |
| 10. Sugurta agenti (3) | Arxivshunos (4) |
| 11. Murabbiy(3) | Telereportyor (6) |

12. Tergovchi(3)_____ San'atshunos (6)_____
13. Notarius(4)_____ Broker (5)_____
14. EHM operatori(4)_____ Manekenshik (6)_____
15. Fotomuxbir(5)_____ Ta'mirlovchi (6)_____
16. Ko'kalamzorlashtiruvchi(1)_____ Biolog-tadqiqotchi (2)_____
17. Avtotransport haydovchisi (1)_____ Bort nazoratchisi (3)_____
18. Meteorolog (1)_____ Kartograf (3)_____
19. Radiomontajchi (1)_____ Yog'ochga ishlov beruvchi (6)_____
20. Geolog(2)_____ Gid-tarjimon (3)_____
21. Muxbir(5)_____ Rejissyor (6)_____
22. Bibliograf (2)_____ Auditor (4)_____
23. Dorishunos (2)_____ Huquqshunos maslahatchi (3)_____
24. Irsiyatchi (2)_____ Me'mor (6)_____
25. Sotuvchi (3)_____ Pochta aloqasi operatori (4)_____
26. Ijtimoiy xodim (3)_____ Tadbirkor (5)_____
27. Oliy o'quv yurti o'qituvchisi (3)_____ Musiqachi-ijrochi (6)_____
28. Iqtisodchi (4)_____ Menejer (5)_____
29. Korrektor (4)_____ Dirijyor (6)_____
30. Bojxona inspektori (5)_____ Modelyer (2)_____
31. Telefonist (1)_____ Ornitolog 2)_____
32. Agronom (1)_____ Topograf (4)_____
33. O'rmonchi (1)_____ Direktor (5)_____
34. Kiyim kechak bo'yicha usta (1)_____ Xoreograf (6)_____
35. Tarixchi (2)_____ DAN inspektori (4)_____
36. Antropolog (2)_____ Ekskursovod (3)_____
37. Virusolog (2)_____ Aktyor (6)_____
38. Ofitsiant (3)_____ Tovarshunos (5)_____
39. Bosh hisobchi (4)_____ Jinoyat qidiruv inspektori (5)_____
40. Sartarosh-modelyer (6)_____ Psixolog (3)_____
41. Asalarichi (1)_____ Savdog'ar (5)_____
42. Hakam (3)_____ Stenografist (4)_____

10-LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Qobiliyat va intellekt psixodiagnostikasi
(10-11- mashg'ulotlar).

Dj.Ravening «Murakkablashib boruvchi matrisalari» metodikasi.

Maqsad: Shaxsning aqliy qobiliyatini aniqlash.

Materiallar: Raven testi namunasi, soat.

Qobiliyatlar va intellektni amaliy o'rganish psixodiagnostika tarixida o'ziga xos tarixiy bosqichga va ilmiy qarashlarga tayaniladi. Qobiliyat—umumiy psixologik tushuncha bo'lib, psixologiyada uni ta'riflashda bir necha yondashuvlar mavjud. Masalan, B.M.Teplov qobiliyatni uchta belgisini sanab o'tadi:


— qobiliyat-bu bir odamni boshqasidan farq qiluvchi individual psixologik xususiyat;

— faoliyatni yoki bir necha faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga munosabatini bildiruvchi xususiyat;

— qobiliyat—bilim, ko'nikma va malaka bilan bog'liq bo'lmagan holat. Ammo bilim, ko'nikma va malakalarni tez va oson o'zlashtirishni shartlovchi xususiyat.

V.D.Shadrikov esa qobiliyat tushunchasini psixologik konkretlash-tirishga harakat qilib, uni individual o'lchamli, alohida psixik funk-siyalarni sifatli va muvaffaqiyatli o'zlashtirishdan iborat psixikaning funk-sional tizimi xossasi sifatida ifodalashga harakat qildi.

D.N.Zavalishin qobiliyat turlarini tahlil etar ekan, umumiy qo-biliyat insonning umumiy sharoitlardagi yetakchi faoliyati bilan, maxsus qobiliyatlarni esa alohida faoliyat sohasi bilan bog'laydi.



Qobiliyat bilan intellekt orasidagi bog'liqlik va o'xshashlikni bilimning qo'llashdagi topshiriqlarni hal etish qobiliyati sifatida qaraganda kuzatiladi.

Birgina insonning ijodiylik, kreativlik (umumiy ijodiy qobiliyat) va intellekt munosabatiga bog'liq minimal darajada uchta yondashuv mavjud:

Bunday kreativlik yo'q. Shaxsning ijodiy aktivligi uchun sharoit yo'q vaqtida intellektual iqtidor zarur. Bu yerda ijodiy xulq-atvor uchun bosh determinant sifatida motivatsiya, qadriyatlar va shaxs xususiyatlari yetakchi rol o'ynaydi (A.Dj.Tannenbaum, A.Maslou, O.B.Bogoyav-

lenskaya). Ular ijodkor shaxsning asosiy xususiyatlariga kognitiv iqtidor, muammoga nisbatan sezgir, noaniq va murakkab vaziyatlarda mustaqil mulohaza yurituvchi sifatlarini kiritdi.

Masalan, ijodiy qobiliyat (kreativlik) intellektga bog'liq bo'lmagan holda mavjud mustaqil omil sanaladi (Dj.Gilford, K.Taylor, Ya.A.Ponomarev). Bu konsepsiyaning yana bir tomoni intellekt bilan kreativlik o'rtasida ahamiyatsiz darajada korrelyatsiya borligi haqida so'z yuritiladi. Ye.Torrensning mulohazasicha, agar IQ qiymati 115-120 dan past bo'lsa, intellekt va kreativlik yagona omilni hosil qiladi, 120 dan yuqori bo'lsa ijodiy qobiliyat mustaqil sifati o'lchamiga ega bo'ladi, ya'ni quyi intellekt bilan kreativlik o'rtasida bog'liqlik kuzatilmaydi, deyiladi. Ammo ushbu g'oyadan farqli o'laroq hayotiy kuzatishlarda quyi kreativli intellekt egalari bor.

Intellektni yuqori darajada rivojlanishi ijodiy qobiliyatning yuqori yoki aksincha holati ham bo'lishi mumkin. Ijod jarayonining psixik faollikdagi singari spetsifik shakli yo'q (D.Veksler, G.Ayzenk, A.Termen va boshqalar).

Intellektning faktorli nazariyasi asoschisi Ch.Spirmen quyidagi g'oyani ilgari surdi:

- Intellekt qat'iy insonning shaxs xususiyatlariga bog'liq emas;
- Intellekt o'z tuzilmasiga intellektual bo'lmagan sifatarni qo'shmaydi (qiziqish, erishish motivatsiyasi, bezovtalanish). U intellektni to'rtta turga ajratdi: birinchi tip intellekt-yangilikni tez tushunish, ikkinchisi-bilishning to'liqligi, uchinchisi-»sog'lom fikrga egalik», to'rtinchisi-yechimlarning originalligiga bog'liq. Uning g'oyasiga ko'ra, umumiy qobiliyat -bosh faktor-G -faktorda, maxsus qobiliyat -S -faktor tarzda ifodalanadi. G -faktor Ch.Spirmen bo'yicha «aqliy quvvatni» belgilaydi. G.Ayzenk va Dj.Raven o'zlarini intellekt testlarini ishlab chiqishda G -faktor xususiyatiga tayanadilar.

Dj.Ravening «Murakkablashib boruvchi matritsalar» 1936 yillarda yaratilgan bo'lib, unda har birida 12 ta topshiriqdan iborat 5 seriyali topshiriqlar mujassamlashtirilgan. Test to'plamlari to'g'ri burchak shaklidagi matritsalaridan tashkil topgan bo'lib, o'zida mantiqiy yaxlitlikka, ma'lum qonuniyat va qoidalarga asoslanib tuzilgan har xil figura va figuralar to'plamidan iborat. Masalan, qandaydir qismida yetishmovchilik mavjud bo'lgan rasm va tasvirlar berilganki, tekshiriluvchi mantiqiy jihatdan tahlil qilib, matritsa ostida berilgan 1 va 6 yoki 1dan 8 gacha bo'lgan javoblar variantidan birini mos o'ringa qo'yishi lozim bo'ladi.

Har bir seriya yengil topshiriqlardan boshlanib, keyinchalik murakkablashib boraveradi. Bu holat A seriyadan boshlanib, Ye seriyada yanada murakkabroq ko'rinish oladi.

Ravenga muvofiq bu test qobiliyatni tekshirishda ma'lum shakllarni idrok etishni, ularning xususiyatlarini qamrab olish lozimligini, munosabatlar yig'indisiga asoslanganligi tufayli har bir topshiriqni bajarishda ma'lum mantiqiy mulohazalashni talab etadi.

Matritsaning perseptiv shkalasi ikkita nazariyaga tayanadi:

A) Geshtalt psixologiyada rivojlangan shakllarni idrok etish nazariyasi;

B) K.Spirmenning neogenez nazariyasi.

Topshiriqlarni yechishda uchta asosiy psixik jarayonlar ishtirok etadi:

— diqqat, e'tiborlilik (diqqat idrok va tafakkur doirasidan ajratiladi);

— idrok etuvchanlik;

— tafakkur, tushunuvchanlik.

Topshiriqlarni yechish vaqtida diqqatda ancha zo'riqish paydo bo'ladi. Shunday bo'lsada uni tekshiriluvchining topshiriqlarni yechishdagi qiziquvchanligi yengilashtirishga olib keladi. Topshiriqlarni bajarish sharoitida diqqatni to'plashni va uni taqsimlashni talab etadigan holatlar ko'p uchraydi. Bu yerda diqqatdan tashqari iroda va emotsiyaning ham ahamiyati ko'zga tashlanadi. Shu sababli ham Ravening «Murakkablashib boruvchi matritsalar» «umumiy intellektni» tekshiruvchi test emas, balki intellektual faoliyatni rejali, tizimlashganlik qobiliyatini tekshirishga qaratilgan.

Raven testi topshiriqlarining alohida seriyalar bo'yicha tavsifini keltirib o'tish o'rinlidir. Bu holatini inobatga olishimiz tadqiqot natijalariga ko'ra test topshiriqlarini tahlil etishimizda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi va bizga ma'lum yengilliklar tug'diradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, matritsa shkalalari 5 seriya topshiriqlardan tuzilgan bo'lib, Raven ularni quyidagi tamoyillarga muvofiq tartiblagan edi:

A seriya topshiriqlari tuzilmasi o'zaro aloqadorlik tamoyiliga;

B seriya topshiriqlari juft figuralar orasidagi o'xshashlikka (analogiya);

D seriya topshiriqlari figuralaridagi progressiv o'zgarishlarni aniqlash tamoyili;

E seriya topshiriqlari seriya topshiriqlari figuralarni qayta guruhlash tamoyili;

F seriya topshiriqlari figuralarni elementlarga ajratib tashlash tamoyiliga tayanib tuzilgan.

Har bir seriya topshiriqlariga xos ayrim jihatlarni tahlil etish va izohlash mumkin.

A seriya topshiriqlari tekshiruvchanlik ahamiyati matritsadagi yetishmaydigan qismni to'ldirishdan iborat. Uning figuralari statik xarakterlidir. A seriya topshiriqlarini yechishda ikkita fikrlash jarayoni kechadi: 1) tuzilmani farqlash va tahlil etish yordamida qismlar orasidagi moslikni topish lozim bo'ladi; 2) tuzilmadagi yetishmaydigan qismni identifikatsiyalash va matritsa ostida berilgan 6 ta qirqma qismlarni yetishmaydigan tomonini qiyoslashni talab etadi. Uning psixologik ahamiyatini topshiriqlarni yechishda vizual farqlash va hayolga, statik tasavvur darajasi va e'tiborlilik darajasiga ancha bog'liq.

B seriya topshiriqlari ikkita juft figuralar orasidagi anologiyani topishga asoslangan. Tekshiriluvchi topshiriqlarni ushbu tamoyilga asoslanib, sekin-astalik bilan elementlar orasidagi differensiatsiyani inobatga olishi lozim. Topshiriqni yechimini topishda figuralar orasidagi simmetriklikni qo'yish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Psixologik ahamiyati: chiziqli bog'lanish asosida chiziqli differensiatsiyalash va xulosalash lozim bo'ladi.

D seriya topshiriqlari matritsadagi figuralarni ma'lum mantiqiylik jihatidan figuralar joylashuvini uzluksiz rivojlanish tamoyiliga va fazodagi dinamik almashuviga qarab murakkab o'zgartirishlar kiritishga asoslangan(figura gorizontal va vertikal yo'nalishda ortib borib, yakunida bu yangi elementlar yetishmovchi figuraga aylanadi).

Psixologik ahamiyati: tasavvur qilish qobiliyati, dinamik e'tiborlik va kuzatuvchanlikka qobiliyatlilikni yoritishdan iborat.

E seriya topshiriqlari matritsadagi figuralarni gorizontal va vertikal yo'nalishda qayta tuzish tamoyiliga ko'ra tuzilgan. Yechish figuralarning ketma-ketligi va yaxlit tuzilmadagi figuralarni almashinish qonuniyatiga aniqlashni talab etadi.

Psixologik ahamiyati: foydalanilgan o'zgarishlar qonuniyatiga ko'ra figuralarni tartiblashtirishda miqdoriy va sifat o'zgarishlarni qo'lga kiritish qobiliyatiga bog'liq.

F seriya qabul qilingan tamoyilga muvofiq alohida elementlardan figuralarni analiz va sintez orqali xulosalash topshiriqlaridan iborat. Bu yerda figura elementlarini hisobga olish va taxlash, qismlarni algebraik

tamoyillarga muvofiq qismlarni qo'shishdan iborat. Tuzilmadagi yetishmaydigan a'zo algebraik operatsiyalar yordamida tuzilmaning boshqa a'zolari bilan topiladi.

Psixologik ahamiyati: kinetik va dinamik qatorlar orasidagi murakkab miqdor va sifat farqlarni kuzatish qobiliyati. Abstraksiyaning yuqori shakli va dinamik sintezni aniqlashdan iborat.

Intellektni tahlil etishda L.Terstounning o'ziga xos yondashuvi bo'lib, uni 12 faktorga ajratdi va ulardan 7 tasini tadqiqotlarda ko'p ishlatiladi: V-so'zli tushunish, so'zli analogiya, tekstni tushunish, verbal tafakkur va maqollarni sharhlashga doir testlar; W-nutqning tezligi, ma'lum kategoriya so'zlardan foydanishga asoslangan test topshiriqlari, N-sonli faktor, arifmetik hisob-kitoblarni tez va aniq bajarish, S-fazoviy omil, M-assotsiativ xotira, P-idrok tezligi, I-induktiv faktor.

Psixodiagnostikada qobiliyatlar va intellektni o'rganishga doir ularning klassifikatsiyasiga e'tibor qaratganda: motor yoki harakat qobiliyatlari, sensor qobiliyatlar, vizual qobiliyat, texnik qobiliyatlar va kasbiy qobiliyatlarga ajratiladi. O'z navbatida ularga mos tarzda maxsus metodikalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Harakat qobiliyatlarini o'rganishdagi dastlabki metodikalar F.Galton va E.Krepelenlar hisoblanadilar. Zamonaviy psixologiyada esa Stromberg, Kraumford, M.I.Gurevich va N.I.Ozeresklar tomonidan ishlab chiqilgan metodikalar; sensor qobiliyatlarga doir Sishorning musiqaga iqtidorlikni, eshitish idrokini o'rganishga mo'ljallangan Massachuseti testi; texnik qobiliyatlarini o'rganishda esa Bannet va Purdy testlarini uchratish mumkin.

Intellektni diagnostika etishda Dj. Ravening «Murakkablashib boruvchi matritsalarini», R.B.Ketell va A.K.Kettellning CFIT testi, D.Veksler testi, R.Gardnerning analitik-sintetik qobiliyatlarni o'rganish testi, R.Meylining analitik testi, R. Amtxaueraning intellekt strukturasini o'rganish testi va boshqa metodikalarni uchratish mumkin.

Biz quyida Dj.Ravening «Murakkablashib boruvchi matritsalarini»,

R. Amtxaueraning intellekt strukturasini o'rganish testini tadqiqot guruhida sinash jarayoni xususida fikr yuritamiz.

Ishning borishi:

Tadqiqot o'tkazish ko'nikmasini oshirish maqsadida talabalarda birinchi bo'lib sinovni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talabalarda to'liq tushuncha hosil bo'lganidan so'ng mustaqil tarzda tadqiqot o'tkazish vazifa qilib beriladi.

Sinaluvchilarga quyidagicha ko'rsatma beriladi: Sizga taqdim etilayotgan quyidagi noverbal topshiriqlar A, B, D, E, F seriyalarda 12

tadan topshiriqlarni birlashtirgan. Sizning vazifangiz o'zaro aloqadorlik, o'xshashlik (analogiya), figuralaridagi progressiv o'zgarishlar, figuralarni qayta guruhlash, figuralarni elementlarga ajratish tamoyillariga tayanib topshiriq javoblarini aniqlashingiz kerak bo'ladi. Aniqlagan javoblaringiz raqamlarini maxsus javoblar varaqasiga belgilang.

Raven testi javoblar varaqasi

Familiya _____ Tug'ilgan kun __ oy __ yil ____
 Ism _____ Bugungi kun __ oy __ yil ____
 O'qish (ish) joyingiz _____
 Boshlangan vaqt: _____

A		B		D		E		F	
1		1		1		1		1	
2		2		2		2		2	
3		3		3		3		3	
4		4		4		4		4	
5		5		5		5		5	
6		6		6		6		6	
7		7		7		7		7	
8		8		8		8		8	
9		9		9		9		9	
10		10		10		10		10	
11		11		11		11		11	
12		12		12		12		12	
Vaqt		Vaqt		Vaqt		Vaqt		Vaqt	

Tadqiqotchi _____

Raven metodikasini (psixologiya fanlari doktori, professor B.R.Qo'dirov modifikatsiyasi bo'yicha) ballash yo'riqnomasi.

№	A seriya		B seriya		D seriya		E seriya		F seriya	
	Javob	Ball	Javob	Ball	Javob	Ball	Javob	Ball	Javob	Ball
1	4	3	2	2	8	4	3	3	7	7
2	5	1	6	2	2	4	4	5	6	7

3	1	1	1	3	3	5	3	5	8	7
4	2	3	2	3	8	5	7	6	2	7
5	6	3	1	5	7	6	8	7	1	8
6	3	1	3	5	4	6	6	6	5	8
7	6	3	5	5	5	6	5	8	1	8
8	2	4	6	5	1	6	4	7	6	8
9	1	3	4	6	7	6	1	7	3	9
10	3	3	3	6	6	6	2	7	2	9
11	4	2	4	6	1	6	5	9	4	9
12	5	3	5	6	2	6	6	8	5	9
Jami:		30	Jami:	54	Jami:	66	Jami:	78	Jami:	96
Jami:		S,D,Ye-240					A,V,S,D,Ye-324			

Raven (psixologiya fanlari doktori, professor B.R.Qodirov modifikatsiyasi) bo'yicha intellektning ifodalanishi

№	Intellekt darajalari	Ball
1	Juda past intellekt	0-43
		44-59
		60-73
2	O'rtachadan past intellekt	74-87
		88-101
		102-115
		116-129
		130-144
3	O'rtacha intellekt	145-158
		159-172
		173-186
		187-201
		202-216
		217-231
		232-247
4	Yuqori intellekt	248-262
		263-277
		278-292
5	Alohida rivojlangan intellekt (juda yuqori)	293-308
		309-324

Raven testini o'tkazish bo'yicha bayonnomani to'ldirish namunasi.




BAYONNOMA

№	F.I.SH	Yoshi	Natijalarning ball ko'rsatkichlari (seriyalar)					Umumiy ball	Intellekt sifati ko'rsatkichi
			A	B	D	E	F		
1	Ahmedov Asilbek	16	15	20	24	26	30	115	O'rtachadan past intellekt
2	Karimov Javlon	19	18	25	35	40	32	150	O'rtacha intellekt
3	Xolmatov Elbek	21	25	30	40	45	50	190	O'rtacha intellekt
4	G'afurova Muxlisa	30	25	40	42	50	70	227	O'rtacha intellekt
5	Botirqulov Laziz	29	27	42	50	54	80	253	O'rtacha intellekt


Har bir tekshiriluvchida uning yoshi, tajribasi, hatto shug'ullandigan ish faoliyatiga bog'liq holda aqliy qobiliyat ko'rsatkichlari namoyon bo'lishi mumkin. Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda xulosa chiqariladi.

Eslatma: IQ natijalarining ifodalanishi 16-30 yosh chegarasida alohida, 30 yoshdan katta insonlarda alohida ifodalanadi.




A-seriya




A-1





A-2



A-3



A-4




A-5





A-6



A-7





A-9



A-11


A-8



A-8





A-10




A-12



B-seriya




B-1





B-2



B-3




B-4





B-5





B-6





B-7





B-8





B-9



B-10





B-11





B-12



D-seriya




D-1





D-2




D-3





D-4




D-5





D-6





D-7





D-8





D-9



D-10





D-11




D-12



E-seriya




E-1





E-2




E-3




E-4




E-5





E-6





E-7




E-8





E-9



E-10





E-11





E-12



F-seriya




F-1





F-2





F-3





F-4





F-5





F-6





F-7





F-8





F-9



F-10



F-11



F-12

11- LABORATORIYA ISHI

Intellectual qobiliyatni aniqlash. (R. Amtxauer testi)

Maqsad: Shaxsning intellektual qobiliyatini o'rganish

Materiallar: R. Amtxauer testi namunasi, soat.

R. Amtxauerning intellektual qobiliyatlarni aniqlash testi kasbiy ta'lim turini va kasbiy tanlov tanlashga mo'ljallangan. Maksimal keng kasbiy tanlovga mo'ljallangan bo'lib, sinavchilarning yoshi 13 dan 60 gacha bo'lishi mumkin.

Test intellektning to'rt: verbal, matematik, mnemik, va fazoviy komponentlarni tashxis qiladi. Testni bajarishga 60 minut (maksimal 90 minut) vaqt ajratiladi.

Test 9 ta subtestdan iborat bo'lib, barcha 4, 5 va 6 lardan tashqari barcha subtestlarda yopiq savollardan foydalanilgan.

1. «Mantiqiy tanlov» (IS) - «tilning sezgikligi» o'rganiladi. Tekshiriluvchi ro'yhatda berilgan so'zlardan mosini tanlab, jumlani tugatishi kerak.

2. «Umumiy belgilarni aniqlash» (GE) - abstraktsiya qilish qobiliyati o'rganiladi.

3. «O'xshashlik» (AN) - o'xshashlikni topa olish qobiliyati o'rganiladi. Ucha so'z berilib, birinci va ikkinchi so'z o'rtasida bog'liqlik bo'lib, tekshiriluvchi uchinchi so'zga to'rtinchi so'zni topishi kerak.

4. «Guruhlashtirish» (KL) - mulohaza qila olish qobiliyati baholanadi. Tekshiriluvchi ikkita so'z o'rtasida bog'liqlikni topishi kerak.

5. «Hisob» (RA) - arifmetik tafakkurning rivojlanish darajasi tashxisdan o'tkaziladi.

6. «Sonlar qatori» (ZR) - induktiv tafakkur o'rganiladi. Sonlar qatori o'rtasidagi qonuniyatni aniqlash va qatorni davom ettirish.

7. «Shaklni tanlash» (FS) - makoniy tasavvur o'rganiladi. Qismlarga bo'lingan shakllar taklif qilinib, bo'lingan shaklga mos shaklni tanlash kerak.

8. «Kubiklar» (WU) - hajmli obyektlar bilan makonda hayoliy harakatga keltira olish malakasi o'rganiladi. Joylashuvi o'zgartirilgan kub rasmi bo'lib, taklif qilingan rasmlar ichidan berilgan kubga mosini tanlay olish talab qilinadi.

Ishning borishi:

Sinaluvchilarga quyidagicha ko'rsatma beriladi. Sizga taqdim etilayotgan ushbu metodikada jami uch qismdan iborat 30 ta verbal va noverbal topshiriqlar o'rin olgan. Sizning vazifangiz topshirqa xos ko'rsatmalar asosida topshiriqlarning tog'ri yechimi va javoblarini aniqlashdan iborat. Javoblaringizni maxsus javoblar varaqasiga belgilang.

Shundan so'ng topshiriqlar namunasi (Amtxauer testi) va maxsus javoblar varaqasi sinaluvchilarga tarqatiladi. Har bir qism uchun 15 minutdan vaqt ajratiladi. Tadqiqotchi tomonidan vaqt me'yorlari nazorat qilib boriladi.

Amtxauer testi javoblar varaqasi

№	Topshiriq seriyalari.					
	I seriya		II seriya		III seriya	
	Topshiriq	Javob	Topshiriq	Javob	Topshiriq	Javob
1	1		11		21	
2	2		12		22	
3	3		13		23	
4	4		14		24	
5	5		15		25	
6	6		16		26	
7	7		17		27	
8	8		18		28	
9	9		19		29	
10	10		20		30	

Baholash tartibi.

Har bir to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi. Barcha subtestlar bo'yicha birlamchi ballar yig'indisi umumiy aqliy rivojlanish darajasini baholash ko'rsatkichiga aylantiriladi. Har bir qism bo'yicha sinaluvchining to'plangan ballari unung 1- qism ijtimoiy gumanitar yo'nalishi bo'yicha, 2- qism aniq fanlar yo'nalishi bo'yicha, 3-qism ijodiy tasviriy faoliyat yo'nalishi bo'yicha sinaluvchining qobiliyatlarining rivojlanish darajasini ko'rsatadi.

Amtxauer metodikasi javoblari (kalit)

№	Topshiriq seriyalari.					
	I seriya		II seriya		III seriya	
	Topshiriq	Javob	Topshiriq	Javob	Topshiriq	Javob
1	1	1	11	2	21	5
2	2	1	12	5	22	4
3	3	1	13	8	23	3
4	4	5	14	7	24	1
5	5	3	15	5	25	1, 2, 3, 4, 5
6	6	3	16	7	26	1, 2, 3, 4, 5
7	7	5	17	7	27	2
8	8	2, 6	18	6	28	1
9	9	2, 6	19	6	29	5
10	10	3, 5	20	1, 3	30	3

Qobiliyatlarning ifodalanishi

Qobilyatlarning ifodalanish darajasi	Umumiy to'plangan ballar yig'indisi	Topshiriqlar		
		I seriya	II seriya	III Seriya
Yuqori	30-25 ball	10-8	10-8	10-8
Me'yorda	25-20 ball	8-6	8-6	8-6
Me'yordan past	20-15 ball	6-4	6-4	6-4
Juda past	15-0 ball	4-0	4-0	4-0
Aniqlanadigan qobiliyatlar	Umumiy intellektual qobiliyatlari	Ijtimoiy gumanitar	Aniq fanlar	Ijodiy tasviriyl faoliyat

Amtxauer testini o'tkazish bo'yicha bayonnomani to'ldirish namunasi.

BAYONNOMA

№	F.I.SH	Yoshi	Natijalarning ball ko'rsatkichlari			To'plangan umumiy ball	Qobiliyatlarining ifodalalanish darajasi	Yetakchi qobiliyat turi
			I seriya	II seriya	III seriya			
1	Ahmedov Asilbek	16	8	9	8	26	Yuqori	Aniq fanlar
2	Karimov Javlon	19						
3	Xolmatov Elbek	21						
4	G'afurova Muxlisa	30						
5	Botirqulov Laziz	40						

Har bir tekshiriluvchida uning yoshi, tajribasi, hatto shug'ullanadigan ish faoliyatiga bog'liq holda intellektual qobiliyat ko'rsatkichlari namoyon bo'lishi mumkin. Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda xulosa chiqariladi.

R. Amtxauer metodikasi namunasi

Birinchi qism:

Testning birinchi qismini bajarishga 15 minut vaqt ajratiladi.

Ko'rsatma: Quyida keltirilgan jummalarni tugatish uchun bir so'z yetmaydi. Siz berilgan beshta so'zning ichidan mazkur jumlani to'g'ri tugatish uchun kerakli so'zni tanlashingiz va javob varaqasida tanlagan so'zning tartib raqamini belgilashingiz talab qilinadi.

1. Umid qilishning teskarisi- bu:

1. umidsizlik;
2. tushkunlik;
3. xafagarchilik;
4. qoniqish;
5. ezilganlik.

2. Yorliq-bu ko'p hollarda....

1. ajralib turish belgisi;
2. ko'rsatma;
3. yozuv;
4. reklama;
5. nom.

Ko'rsatma: Quyida berilgan topshiriqlarda 5 ta so'z keltirilgan. Ularning to'rttasi doimo ma'lum belgisi bo'yicha o'xshashdir. Siz ularga to'g'ri kelmaydigan beshinchi so'zni topishingiz kerak. Javob varaqasiga boshqalarga to'g'ri kelmaydigan so'zning raqamini belgilashingiz so'raladi.

3. 1) noto'g'ri xulosa; 2) aldov; 3) qalloblik; 4) soxta 5) qalbaki-lashtirish

4. 1) tasdiqlanish; 2) qaror qilish; 3) rejalashtirish; 4) baholash; 5) mulohaza

Ko'rsatma: Keyingi topshiriqlar guruhida sizga uchta so'z havola etiladi. Birinchi va ikkinchi so'z orasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Uchinchi va quyida berilgan beshta so'zlardan biri bilan xuddi shunday bog'liqlik mavjuddir. Siz bu so'zni topishingiz va javob varaqasida belgilashingiz so'raladi.

5. «Maktab» va «bilim» so'zlari o'rtasida qanday bog'liqlik bo'lsa, «bahor» so'zi bilan

- 1) gul; 2) sel; 3) uyg'onish; 4) momaqaldiroq; 5) qaldirg'och.

6. «Albom» va «foto» so'zlari o'rtasida qanday bog'liqlik bo'lsa, «gazeta» so'zi bilan

- 1) qog'oz; 2) yangilik; 3) maqola; 4) sarlavha; 5) e'lon.

7. «Izlanish» va «tadqiqotchi» so'zlari o'rtasida qanday bog'liqlik bo'lsa, «sayohat» so'zi bilan

- 1) dengiz; 2) sovg'a; 3) mehmonxona; 4) bilek; 5) tassurot.

Ko'rsatma: Keyingi guruhda 6 ta so'z berilgan. Ulardan umumiy tushuncha bilan bog'langan ikkita so'zni tanlashingiz lozim. Masalan:

1) pichoq; 2) saryog'; 3) gazeta; 4) non; 5) sigaret; 6) bilakuzuk. Non va saryog' bu to'g'ri javobdir, chunki ular oziq-ovqat.

8. 1) tort; 2) sharbat; 3) piyola; 4) oshxona; 5) meva; 6) sut.

9. 1) mutaxassis; 2) qilichboz; 3) kapitan; 4) amaliyotchi; 5) kotiba; 6) alpinist.

10. 1) achinmoq; 2) chimchilamoq; 3) qurmoq; 4) sovqotmoq; 5) musiqa bastalamoq; 6) qolmoq.

Ikkinchi qism:

Testning ikkinchi qismini bajarish uchun 15 minut vaqt ajratiladi.

Ko'rsatma: Quyidagi arifmetik masalalarni to'g'ri va imkoni boricha tez yechish hamda taklif etilgan variantlar ichidan to'g'ri javobni tanlashingiz va raqamini javob varaqasiga belgilashingiz so'raladi.

11. Ko'chani ta'mirlash uchun 3ta ishchiga 6 kun vaqt kerak. 9 ta ishchi bu ishni necha kunda bajaradi.

1) 1; 2) 2; 3) 3; 4) 4; 5) 5; 6) 14; 7) 16; 8) 18; 9) 20.

12. Qorishma hosil qilish uchun 2 qism mis va bir qism rux olindi 39 gramm qorishma olish uchun necha gramm rux kerak:

1) 1; 2) 8; 3) 9; 4) 12; 5) 13; 6) 16; 7) 19; 8) 32; 9) 35.

13. 2ta poyezd soat 9 da uchrashishdi. Agar ulardan biri 126 km/s tezlik bilan ikkinchisi 75 km/s tezlik bilan harakatlanayotgan bo'lsa soat 8.20 da ularning orasidagi masofa qancha?

1) 4; 2) 15; 3) 29; 4) 30; 5) 39; 6) 45; 7) 55; 8) 65; 9) 85.

14. 50 detaldan 4% berilgan o'lchamdan katta, 12% esa kichik. Qancha detal berilgan o'lchamga teng.

1) 2; 2) 8; 3) 112; 4) 18; 5) 32; 6) 34; 7) 42; 8) 68; 9) 84.

15. 52 ta tangani ikki qismga shunday ajratish kerakki, bunda bir qismi ikkinchisidan 3 marta ko'p bo'lsin. Kam qismda tangalar soni qancha?

1) 3; 2) 7; 3) 11; 4) 12; 5) 13; 6) 14; 7) 17; 8) 23; 9) 39.

16. Eski baho bo'yicha ishchi 5 ta gayka uchun 1200 so'm oldi. Yangi baho bo'yicha esa 1200 so'mni 4 ta gayka uchun oldi. Necha foizga baho oshdi?

1) 5; 2) 6; 3) 10; 4) 12; 5) 16; 6) 20; 7) 25; 8) 30; 9) 60.

17. Tomonlari 3 sm bo'lgan kubik 54 gramm bo'lsa, tomonlari 2 sm bo'lgan xuddi shunday kubik necha grammga teng:

1) 16; 2) 18; 3) 24; 4) 28; 5) 34; 6) 35; 7) 36; 8) 43; 9) 48.

Ko'rsatma: Keyingi topshiriqlar guruhida Sizga ma'lum tartibda kelgan sonlar tartibi taklif etiladi. Sizdan qatorni davom ettirishi kerak

sonni topishingiz va javob varaqasiga tartib raqamini belgilashingiz kerak.

Masalan, 16, 18, 20, 22, 24, 26 sonlar qatori berilgan. Bu qatorda har bir keyingi son ikkitaga oshmoqda. Demak, keyingi son 28.

Ba 'zi topshiriqlarni bajarishda ko 'paytirish yoki bo 'lish talab qilinadi.

18. 57,60,30,34,17,22,11...

1) 6; 2) 8; 3) 11; 4) 13; 5) 16; 6) 17; 7) 27; 8) 45; 9) 51.

19. 2,3,6,11,18,27,38...

1) 7; 2) 13; 3) 15; 4) 17; 5) 50; 6) 51; 7) 52; 8) 76; 9) 84.

20. 174,171,57,54,18,15....

1) 1; 2) 3; 3) 5; 4) 7; 5) 9; 6) 10; 7) 11; 8) 12; 9) 13.

Testning uchinchi qismi.

Testning uchinchi qismidagi topshiriqlarni bajarish uchun 15 minut vaqt beriladi.

Ko'rsatma: Quyida 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27 raqamlari ostida qismlarga bo'lingan shakllar berilgan. Sizdan hayolan qismlarni birlashtirib 1, 2, 3, 4, 5 raqamlari bilan belgilangan shakllardan qaysi biri hosil bo'lishini topishingiz va javob varaqasiga tartib raqamini belgilashingiz talab qilinadi.



1



2



3



4



5



21




22



23



24



25



26



27






Ko'rsatma: Oxirgi topshiriqlar guruhi 5ta turli kubiklardan iborat bo'lib, 1. 2. 3 .4. 5 raqamlari bilan belgilangan va shu bilan birga javob variantlarini bildiradi. Har bir kubik 6 xil turli belgilarga ega. Belgilardan uchtasini siz ko'rishingiz mumkin 28. 29. 30 raqamli topshiriqlarda turli ko'rinishdagi kubik tasvirlangan.

Sizga ko'rinib turgan belgilarga qarab, tepada berilgan kubiklardan qaysi biri ekanligini topishingiz kerak.

Kubik ag'darilgan yonga aylantirilgan bo'lishi mumkin. Bunda kubikning yangi belgilari paydo bo'lishini inobatga oling.

Shuningdek, sizning diqqatingiznil. 2. 3. 4. 5 raqamlari ostida kelgan kubiklarning hech biri qaytarilmaydi, ularning har biri birorta-bir belgi bilan ajralib turadi. Ular bir xil belgiga ega bo'lib, faqat turlicha joylashgan bo'lishi mumkin.

28. 29. 30 raqamlari ostida berilgan kubiklarni hayolan aylantirib, ulardan qaysi biri yuqoridagilarga to'g'ri kelishini topishingiz so'raladi.



12-LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Shaxs psixodiagnostikasi. (12-14- mashg'ulotlar).
(V.A.Sonin metodikasi)

Maqsad: Shaxsning o'z-o'ziga bahosini aniqlash.

Material: V.A.Sonin metodikasi blanki

Ishning borishi: Talabalarga Sonin metodikasi yo'riqnomasi tushuntiriladi. Shundan so'ng sinov uchun metodika blanki tarqatiladi. Talabalar o'zlarida mustaqil ko'nikma hosil qilgandan so'ng belgilangan miqdorda sinalluvchilarda tadqiqot o'tkazish uchun topshiriq beriladi.

V.A.Soninning «Bu olamda men kimman?» metodikasi yo'riqnomasi.

«Sizga gorizontall chiziqlarga joylashtirilgan 10 xil shaxs xususiyatlari tavsiya etilmoqda. E'tiboringizni bir joyga to'plab yer sharida yashayotgan odamlarni ana shu chiziqqa joylashtirib tasavvur qilib ko'ring. Ular orasida sog'lom va bemorlar, aqlli va ahmoqlar ham bor. Siz o'zingizni ana shu chiziqning qayerida turibman deb baholaysiz. O'sha yerdagi raqamni doira ichiga olib belgi qo'ying».

Natijalar ko'rsatkichi tahlili.

56-60 ball yaqqol ifodalangan o'z-o'ziga yuqori baho berish

46-55 ball o'z-o'ziga yuqori baho berishga moyillik

35-45 ball reallikka mos keladigan (haqqoniy) o'z-o'ziga baho berish

21-34 ball o'z-o'ziga past baho berishga moyillik

10-20 ball yaqqol ifodalangan o'z-o'ziga past baho berish

O'zini baholash natijalari tahlili jadvali

O'zini baholash	Xatti-harakatning o'ziga xosligi	Xatolarga bo'lgan munosabat	
		O'zining	O'zgalarning
Yaqqol ifodalangan o'z-o'ziga yuqori baho berish	Turli faoliyatlarga nisbatan muvaffaqiyatlarga erishish holati, o'z kuchiga nisbatan ishonch	O'z xatosini ko'pgina holatlarda to'g'irlamaydi, uni unitishga va u haqida o'ylamaslikka harakat qiladi.	Boshqalarning xatosiga nisbatan befarq

O‘z-o‘ziga yuqori baho berishga moyillik	O‘zini yuqori tutish, o‘z imkoniyatlarini yuqori baholash, o‘zgalarnikini past baholash	Bularni tasodifiy deb o‘ylaydi, boshqa omillarni bahona qiladi (o‘zimni yomon his qilayotgandim va boshqalar).	Bu qonuniyatga asoslangan deb o‘ylaydi, bu xatolar bo‘lishi kerak edi deb hisoblaydi.
Reallikka mos keladigan (haqqoniy) o‘z-o‘ziga baho berish	Faollilik, muloqotga moyillilik, optimizm	Umuman olganda –adekvat, xafa bo‘lishi mumkin, o‘zining xatosini to‘g‘irlashga harakat qiladi, boshqalarning xatosi uchun hamdardlik bildiradi.	
O‘z-o‘ziga past baho berishga moyillik	Passivlik, o‘ziga yo‘nalganlik, har doim o‘z imkoniyatlarini past baholaydi, boshqalarni yuqori	Buni qonuniyatga asoslangan, bo‘lishi kerak deb hisoblaydi	Ularni oqlaydi. Ularning xatolarini tasodifiy deb hisoblaydi.
Yaqqol ifodalangan o‘z-o‘ziga past baho berish	O‘ziga ishonchi yo‘q, uyatchan, yuqori darajadagi xavotirning mavjudligi	Xavotirlanadi, lekin to‘g‘irlashga harakat qilmaydi	Befarq

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

№	F.I.SH	Yoshi	O'z-o'ziga baho darajasi	Xatolarga bo'lgan munosabat	
				O'zining	O'zgalarining
1	Ahmedov Asilbek	14	21-34 ball o'z-o'ziga past baho berishga moyillik		
2	Karimov Javlon	17	46-55 ball o'z-o'ziga yuqori baho berishga moyillik		
3	Xolmatov Elbek	15	10-20 ball yaqqol ifodalangan o'z-o'ziga past baho berish		
4	G'afurova Muxlisa	18	35-45 ball reallikka mos keladigan o'z-o'ziga baho berish		
5	Botirqulova Laziza	25	56-60 ball yaqqol ifodalangan o'z-o'ziga yuqori baho berish		

Har bir tekshiriluvchining yoshi, jinsi va hayotiy tajribalari mazkur jarayonda o'z-o'ziga baho darajasi ko'rsatkichlarini talqin qilishda asosiy omil bo'lishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichlarga qarab o'z-o'ziga bergan baho darajasi haqida xulosa chiqariladi.

«BU OLAMDA MEN KIMMAN?»

V.A.Sonin metodikasi namunasi

Salomatlik _____ 1, _____ 2, _____ 3, _____ 4, _____ 5, _____ 6
 Bemorlar eng sog'lomlar
 Fahm – farosat _____ 1, _____ 2, _____ 3, _____ 4, _____ 5, _____ 6
 Eng ahmoqlar _____ eng aqllilar
 Mehribonlik _____ 1, _____ 2, _____ 3, _____ 4, _____ 5, _____ 6
 Eng yovuzlar _____ eng mehribonlar
 Vijdonlilik _____ 1, _____ 2, _____ 3, _____ 4, _____ 5, _____ 6
 Eng vijdotsizlar _____ eng vijdonlilar
 Muloqotchanlik _____ 1, _____ 2, _____ 3, _____ 4, _____ 5, _____ 6
 Eng odamovilar _____ eng muloqotchanlar
 Qat'iyatlilik _____ 1, _____ 2, _____ 3, _____ 4, _____ 5, _____ 6
 Eng qat'iyatsizlar _____ eng qat'iyatlilar
 Samimiylik _____ 1, _____ 2, _____ 3, _____ 4, _____ 5, _____ 6
 Eng nosamimiylar _____ eng samimiylar
 Dadillik _____ 1, _____ 2, _____ 3, _____ 4, _____ 5, _____ 6
 Eng qo'rqqqlar _____ eng dadillar
 Jozibadorlik _____ 1, _____ 2, _____ 3, _____ 4, _____ 5, _____ 6
 Eng jozibasizlar _____ eng jozibadorlar
 Baxt _____ 1, _____ 2, _____ 3, _____ 4, _____ 5, _____ 6
 Eng baxtsizlar _____ eng baxtlilar

13-LABORATORIYA ISHI

Shaxs psixodiagnostikasida o'z-o'zini baholash. (Budassi metodikasi)

Maqsad: Shaxsning o'z-o'ziga baho berish koeffitsientini aniqlash.

Material: Shaxs sifatleri va javoblar varag'i.

Ishning borishi:

Tajriba yakka holda yoki guruh sharoitida olib borilishi mumkin. Tekshiriluvchiga quyidagi ko'rsatma beriladi:

1. «Shaxs xususiyatlarini ifodalovchi so'zlarni diqqat bilan o'qib chiqing, bu sifatleri ijtimoiy ahamiyati, foydaliligi va yoqimlilikiga ko'ra 20 ball dan 1 ballgacha baholab chiqing hamda javoblar varag'ining chap tomonidagi N ustuniga yozib qo'ying. Bunda 20 ball eng ahamiyatli, eng foydali va eng yoqimli sifatga, 1 ball esa eng yoqimsiz, ahamiyatsiz va foydasiz sifatga beriladi. 19-20 ballar esa ahamiyatlilik darajasiga ko'ra har bir sifatga qo'yib chiqiladi. Hech bir baho ikki marta qaytarilishi yoki biror sifat baholanmay qolishi mumkin emas».

2. «Tavsiya etilgan sifatlerden o'zingizga xos bo'lganini 20 ball, kamroq xos bo'lganini 19, umuman xos bo'lmaganini 1 ball tartibida baholab chiqing va javoblar varag'ining o'ng tomonidagi N ustuniga yozing».

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

№	Sifatlar	N	D	d ²
	Itoatkorlik			
	Dadillik			
	Ta'sirlanuvchanlik			
	Qat'iyatlilik			
	Asabiylik			
	Chidamlilik			
	Qiziquvchanlik			
	Sustkashlik			

	Sovuqqonlik			
	Tashabbuskorlik			
	Ehtiyotkorlik			
	Injiqlik			
	O'zini tuta olmaslik			
	Qat'iyatsizlik			
	G'ayratlilik			
	Quvnoqlik			
	Qaysarlik			
	Beg'amlik			
	Tortinchoqlik			
	Shubhalanuvchanlik			
				Σd^2

Natijalar tahlili

1. Yuqori qatordagi sifatdan boshlab chap tomondagi N ustunidagi ballardan o'ng tomonidagi N ustunidagi ballarni ayirib, d ustuniga yoziladi.

2. d ustunidagi sonlarni kvadratga ko'tarib, d^2 ustuniga yoziladi.

3. d^2 ustunidagi sonlar yig'indisi hisoblanadi.

4. Quyidagi formula asosida o'z-o'zini baholash koeffitsiyenti aniqlanadi.

$$r=1 - 0,00075 \cdot \Sigma d^2$$

Xulosa

O'z-o'zini baholash koeffitsiyenti +1 dan -1 gacha bo'ladi. Natija +1 ga qanchalik yaqin bo'lsa, o'z-o'zini baholash shunchalik yuqori bo'ladi. Natija -1 ga yaqin bo'lsa, o'z-o'zini baholash past darajada, ya'ni shaxs o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladi. Natija +0,5 atrofida bo'lsa, o'zining ijobiy sifatlarini baholash o'rtacha, -0,5 atrofida bo'lsa salbiy sifatlarini o'rtacha baholaydi.

14-LABORATORIYA ISHI

Ko'p omilli shaxs so'rovnomasi (FPI).

Maqsad: Shaxsni kompleks o'rganish.

Material: Ko'p omilli shaxs so'rovnomasi (FPI)

Ishning borishi:

Talabalarga Ko'p omilli shaxs so'rovnomasi (FPI) yo'riqnomasi tushuntiriladi. Shundan so'ng sinov uchun metodika blanki tarqatiladi. Talabalar o'zlarida mustaqil ko'nikma hosil qilgandan so'ng belgilangan miqdorda sinaluvchilarda tadqiqot o'tkazish uchun topshiriq beriladi.

Ko'p omilli shaxs so'rovnomasi (FPI) yo'riqnomasi.

Yo'riqnoma: quyida keltirilgan tasdiqlar qanchalik sizning xatti-harakatlaringiz, xulq-atvoringiz, boshqalarga munosabatingiz ifodalashga ko'ra mos yoki mos kelmasligini baholang. Agar mos kelgan hollarda «ha»(-), aks holda «yo'q»(-) javobini bering. Javoblaringizni maxsus javoblar varaqasiga belgilang.

Ko'p omilli shaxs so'rovnomasi (FPI) javoblar varaqasi

№	+	-	№	+	-	№	+	-	№	+	-	№	+	-	№	+	-
1			20			39			58			77			96		
2			21			40			59			78			97		
3			22			41			60			79			98		
4			23			42			61			80			99		
5			24			43			62			81			100		
6			25			44			63			82			101		
7			26			45			64			83			102		
8			27			46			65			84			103		
9			28			47			66			85			104		
10			29			48			67			86			105		
11			30			49			68			87			106		
12			31			50			69			88			107		
13			32			51			70			89			108		
14			33			52			71			90			109		
15			34			53			72			91			110		
16			35			54			73			92			111		
17			36			55			74			93			112		
18			37			56			75			94			113		
19			38			57			76			95			114		

**Ko'p omilli shaxs so'rovnomasi (FPI) ning ballash
yo'riqnomasi**

No		Ha	Yo'q
1	Nevrotiklik	4,5,12,15,22,26,31,41,42,57,66,72,85,86,89,105	49
2	Agressivlik	32,33,35,45,50,64,73,77,93,97,98,103,112,114	99
3	Depressiya	16,24,27,28,30,40,48,56,61,74,84,87	-
4	Ta'sirchanlik	6,10,58,69,76,80,82,102,104,107,110	-
5	Muloqotga kirishimlilik	2,19,46,52,55,94,106	3,8,23,53,67,71,79,113
6	Muvozanatli	14,21,29,37,38,59,91,95,108,111	-
7	Peaktiv aggressivlik	13,17,18,36,39,43,65,75,90,98	-
8	Tortinchoqlik	9,11,20,47,60,70,81,83,109	33
9	Ochiqlik	7,25,34,44,51,54,62,63,68,78,92,96,101	-
10	Ekstroversiya-introversiya	2,29,46,51,55,76,93,95,106,110	20,87
11	Emotsional labillik	24,25,40,48,80,83,84,85,87,88,102,112,113	59
12	Maskulizm-fenimizm	18,29,33,50,52,58,59,65,91,104	16,20,31,47,84

FPI- so'rovnomasi shkalalari natijaviy tavsifi

Agar sinaluvchi 1- savolga salbiy javob bergan bo'lsa, bu uning tadqiqot savollariga ochiq javob berish xohishi yo'qligini anglatadi. Agar ijobiy javob bergan bo'lsa, shaxs qiyofasining (profil) rafik ifodasi diqqat bilan o'rganiladi, barcha yuqori va quyi baholar ajratib olinadi. Quyi baho sifatida 1 -3 ball oralig'i, o'rtacha 4-6 ball, yuqori 7-9 ballarda ifodalanadi.

I- shkala.	Nevrotiklik. Shaxsning nevroitik holatini baholaydi. Yuqori ko'rsatkich shaxsning asteniklik holatidagi psixosomatik buzilishlarga mos keladi.
II- shkala	Agressivlik. Shaxsni psixopatiyalashuvini belgilab

	beradi. Yuqori darajasi psixopatiyalashuv holatining o'sib borish darajasini bildiradi.
III- shkala	Depressivlik. Shaxsdagi psixopatik depressivlik sindromini ifodalaydi. Yuqori ko'rsatkich depressivlik alomatlarini, emotsional holatni xulq-atvorida, o'ziga va atrofdagilarga munosabatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.
IV- shkala	Ta'sirlanish. Emotsional barqarorlikni baholaydi. Yuqori ko'rsatkichi emotsional holatdagi beqarorlikni va xulq-atvorda affektiv ta'sirlarning namoyon bo'lishini ifodalaydi.
V- shkala	Muloqatmandlik. Shaxsning ijtimoiy faolligini ifodalaydi. Yuqori ko'rsatkich muloqotga ehtiyojning yuqoriligini va doimo bu ehtiyojni qondirishga tayyorlikni bildiradi.
VI- shkala	Muvozanatlashganlik. Stressga nisbatan barqarorlikni ifodalaydi. Yuqori qiymati hayotiy vaziyatlardagi stressli omillarga chidamlilik, o'ziga ishonch va optimistiklikni ifodalaydi.
VII- shkala	Reaktiv agressivlik. Ekstrovert tipdagilarning agressivlashuvini ifodalaydi. Yuqori darajasi sotsial muhitga nisbatan agressivlikni va dominantlik qilishga moyillikni bildiradi.
VIII- shkala	Tortinchoqlik. Hayotiy vaziyatlarda stresslarni sezuvchan hamda passiv himoyalalanuvchi tipni ifodalaydi. Yuqori darajasi bezovtalik, berklik, ishonchsizlik, sotsial aloqalarga kirishishga qiynaluvchanlik pozitsiyasiga muvofiqlikni bildiradi.
IX- shkala	Ochiqlik (samimiy). Sotsial muhitga va o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatni bildiradi. Yuqori baho atrofdagilar bilan samimiy-ishonchli munosabatni ifodalaydi va o'ziga nisbatan tanqidiy ekanligini ko'rsatadi. Bu shkala boshqa metodikalardagi «yolg'on» shkalasi vazifasini bajaradi.
X- shkala	Estroversiya-introversiya. Yuqori ko'rsatkich ekstrovertlikni, quyi ko'rsatkich introvertlikni ifodalaydi.

XI- shkala	Emotsional labillik. Yuqori ko'rsatkich shaxsda emotsional holatning beqarorligi, kayfiyatning tez o'zgarishi, yuqori qo'zg'aluvchanlikni, o'zini-o'zi boshqarishning yetarlicha emasligini; quyi ko'rsatkichi esa yuqori emotsional barqarorlikni va o'zini yetarlicha boshqara olishini ifodalaydi.
XII- shkala	Maskulizm-fenimizm. Yuqori ko'rsatkich erkaklarga xos xususiyatlarni, quyi ko'rsatkich esa ayollarga xos xususiyatlar yetakchiligini ifodalaydi.

Tadqiqot bayonnomasi quyidagicha to'ldiriladi:

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

№	F.I.SH	FPI METODIKASI SHKALASI NATIJALARINING UMUMIY JADVALI											
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1	Atamurodova	6	9	7	8	8	6	6	6	7	7	6	7
2	Do'stnazarova	5	5	8	7	2	7	6	9	4	4	8	1
3	Abdiyev N	9	7	8	9	3	3	9	9	8	3	8	4
4	Roziqov A	4	5	6	8	3	8	4	7	5	4	7	5
5	To'rayeva G	7	8	7	7	3	3	5	7	4	4	7	1
6	Xojiyev T	4	5	6	8	3	8	4	7	5	4	7	5
7	Malikov F	9	7	8	9	3	3	9	9	8	3	8	4
8	Nabiyeva Sh	6	9	7	8	8	6	6	6	7	7	6	7
9	Jamilova L	7	8	7	7	3	3	5	7	4	4	7	1
10	Samadov A	5	5	8	7	2	7	6	9	4	4	8	1

Olingan natijalar qayta ishlanib, shaxsda ustunlik qiluvchi va ayni paytda ruhiyatida namoyon bo'lgan xususiyatlar yuzasidan ma'lum bir xulosalarga kelinadi.

FPI- so'rovnomasi matni

1. Men yo'riqnomani diqqat bilan o'qib chiqdim va savollarga ochiq javob berishga tayyorman.
2. Men quvnoq davrada dam olishni yoqtiraman (mehmonda, diskoteka, kafe va boshqalar)
3. Mening begona kishi bilan tanishishimga ko'pincha suhbat mavzusini topa olmasligim halaqit beradi.
4. Mening tez-tez boshim og'rib turadi.
5. Ba'zan chakkam va bo'ynimdagi tomirlarning urishini sezaman.
6. Men o'zimni tez yo'qotib qo'yaman va yana tezda o'zimni qo'lga olaman.
7. Uyatsiz latifalardan qochaman.
8. Men biror narsa so'rashdan qochaman va o'zimga kerakli narsani boshqa yo'l bilan bilishni afzal hisoblayman.
9. Men boshqalarnig sezib qolishidan cho'chib, ko'chaga chiqmaslikni afzal ko'raman.
10. Men shunday asabiylashamanki, xatto qo'l ostimga tushgan narsani maydalab tashlashga ham tayyor bo'laman.
11. Atrofdagilar menga e'tibor qaratsalar o'zimni noqulay his qilaman.
12. Men ba'zan yurakni notekis va jo'shqin urishini his qilaman.
13. Hafachilikni kechirib bo'lmaydi.
14. Yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarish va undan o'ch olish kerak deb hisoblayman.
15. Agar men o'rnimdan birdan tursam ko'zim tinib, boshim aylana boshlaydi.
16. Men deyarli har kuni agar omadsizliklar taqib etmaganda hayotim qanchalik yaxshi bo'lishi mumkinligi haqida o'ylayman.
17. Men o'z xatti-harakatlarimda odamlarga doimo ishonish mumkinligidan kelib chiqib yondoshmayman.
18. Agar o'z qiziqishlarimga turish talab etilsa jismoniy kuchimga tayanishim mumkin.
19. Eng zerikarli davrani ham jonlantira olaman.
20. Men tez xijolatga tushib qolaman.
21. Agar mening ishim va shaxsimni tanqid qilsalar bundan xafa bo'lmayman.
22. Ko'pincha o'zimni qaraxt yoki qo'l va oyoqlarim sovuqqot-gandek his etaman.

23. Boshqa odamlar bilan qo'pol muomalada bo'laman.

24. Ba'zan hech qanday sabablarsiz o'zimni siqilgan va baxtsiz his etaman.

25. Ba'zan nima bilandir mashg'ul bo'lishim uchun hech qanday hoxishning o'zi bo'lmaydi.

26. Men juda og'ir ishni bajarganimda havo yetishmaydigandek tuyuladi.

27. Men hayotimda juda ko'p xatolarga yo'l qo'ygandek bo'laman.

28. Ko'pincha boshqalar mening ustimdan kulayotgandek tuyuladi.

29. Men uzoq o'ylamasdan bajariladigan vazifalarni yoqtiraman.

30. Men o'z taqdirimdan mamnun bo'ladigan asoslar bor deb hisoblayman.

31. Mening tez-tez ishtaham bo'lmaydi.

32. Men bolaligimda ota-onalar yoki o'qituvchilarning boshqa bolalarni jazolashidan quvonardim.

33. Odatda men qat'iyatli va tez harakatlanaman.

34. Men doimo haq gapirmayman.

35. Kimdir noxush hodisalardan chiqishga intilishini qiziqish bilan kuzataman.

36. Agar o'ziniki qattiq turib maqullansa, hamma vositalarni ham yaxshi deb hisoblayman.

37. O'tmishdagi hodisalardan kam bezovtalanaman.

38. Kuch ishlatib isbotlamochi bo'lganda hech narsani ayta olmayman.

39. Men bilan janjallashmoqchi bo'lgan odamlarga uchrashishdan qochmayman.

40. Men ba'zan o'zimni hech narsaga yaroqsizdek xis etaman.

41. Menga qandaydir zo'riqishlar ichida turgandek va undan xalos bo'lishim qiyindek tuyuladi.

42. Ko'pincha yotganimda qornimda har xil og'riq beruvchi noxush sezgilar paydo bo'ladi.'

43. Meni do'stimni xafa qilsalar, xafa qilgandan o'ch olishga intilaman.

44. Men uchrashuvlarga kech qolaman.

45. Menda hayvonlarni azoblagan vaqtim bo'lgan.

46. Men eski tanishim bilan uchrashganimda quvonchdan uni quchishga tayyorman.

47. Men biror narsadan qo'rqsam og'zim qurib, qo'l va oyoqlarim titraydi.
48. Menda o'zim ko'rmagan va eshitmagan narsalardan qoniqish hollari bo'ladi.
49. Men odatda tez uxlab qolaman.
50. Men birovlarining xatolariga e'tibor qaratish va gapirishda huzur olaman.
51. Men ba'zan maqtanaman.
52. Muassasadagi jamoat ishlarida faol ishtirok etaman.
53. Ko'pincha ixtiyor etilmagan uchrashuvdan qochishga urinaman.
54. Men o'zimni oqlash uchun nimanidir o'ylab topaman.
55. Men doimo harakatchan va faolman.
56. Menga ko'pincha so'zlayotganlarim suhbatdoshlarimga qiziqarli emasdek tuyuladi.
57. Ba'zan nimadir butunlay chulg'ab olayotganligini his etaman.
58. Agar kim bilandir tortishib qolsam uni urishim mumkin.
59. Menga kimningdir yomon munosabatda bo'lishidan bezovtalanmayman.
60. Odatda men tanishlarimga e'tiroz bildirolmayman.
61. Men omadsizlik haqida o'ylashdan hayajonlanaman va iztirob chekaman.
62. Mening tanishlarim orasida yoqmaydiganlari ham bor.
63. Menda uyatli fikrlar ham bo'ladi.
64. Menda nimagadir ba'zan odamlarni zavqlantirishdan ko'ra ularni xafa qilish xohishi paydo bo'ladi.
65. Men har qanday odamga ishni iltimos qilib emas, majburlab bajartirishni afzal hisoblayman.
66. Men ko'pincha qo'lim yoki oyog'imni noqulay harakatlantiraman.
67. Men bo'sh vaqtimni quvnoq davrada ko'ngil ochish bilan emas, qiziqarli ish bilan mashg'ul bo'lishni afzal hisoblayman.
68. Men davralarda o'zimni uydagidek tutmayman.
69. Men ba'zan hech narsa demay jim turishdan ko'ra o'ylamasdan gapirib yuboraman.
70. Tanish davrada hammaning e'tiborida bo'lib qolishdan qo'rqaman.
71. Mening yaqin tanishlarim ozgina.

72. Ba'zan keskin yorug'lik, rang va kuchli shovqin menda yoqimsiz sezgi uyg'otadi.

73. Davralarda menda ko'pincha kimnidir xafa qilish yoki jahlini chiqarish xohishi paydo bo'ladi.

74. Bu yorug' olamda tug'ilmagan ma'qul, chunki har qanday noxushliklar hayotda yashaganlik tufayli kelib chiqadi.

75. Meni xafa qiladigan odam o'zining haqqini oladi.

76. Men noqulay xatti-harakatli xolatda bo'lsam ham uyalmayman.

77. Menga suhbatdoshni bezor qilish uchun savol-javob berish yoqadi.

78. Tez bajarish talab etilgan ishlarni chetga surib qo'yish hollari bo'ladi.

79. Latifalar yoki qiziqarli voqealarni aytishni yoqtirmayman.

80. Kundalik tashvishlar va qiyinchiliklar meni bezovtalantiradi.

81. Men o'zimni noqulay tutgan davradagi odamlar bilan uchrashishdan o'zimni olib qochaman.

82. Hayotiy ikir-chikirlarga o'ralashib qolgan odamlarga afsuslanib qarayman.

83. Men ko'pchilikning oldida so'zlashdan hadiksirayman.

84. Mening kayfiyatim tez-tez o'zgarib turadi.

85. Men atrofdagilardan ko'ra tezroq charchayman.

86. Agar men biror narsadan kuchli ta'sirlansam yoki hayajonlansam uni qalbdan his etaman.

87. Meni boshimga o'rtnashib qolgan noxush fikrlardan xalos bo'lishim qiyin.

88. Meni oilamdagilar va yaqin tanishlarim tushunishmasligidan afsuslanaman.

89. Agar bugun odatdagidan kam uxlasam o'zimni toliqqandek his etaman.

90. Men noroziligimni atrofdagilardan yashirishga harakat qilaman.

91. Men kelaajagimga ishonaman.

92. Men ba'zan atrofdagilardan kimningdir kayfiyatini buzishga sababchi bo'lib qolaman.

93. Men boshqalar ustidan kulishga moyilman.

94. Men odamlarga «so'zsiz cho'ntakka tushib bo'lmaydi» naqlida munosabat qilaman.

95. Men odamlar bilan tez chiqishib ketaman.

96. Men o'smirlarda taqiqlangan mavzularga qiziqish uyg'ota olaman.

97. Ba'zan nimagadir sevimli odamlarimni azoblanishiga sababchi bo'laman.

98. Men ko'pincha atrofdagilarning qaysarligi tufayli nizola-shaman.

99. Tez-tez o'z xatti-harakatlarim tufayli azoblanaman.

100. Men ko'pincha parishonxotir bo'laman.

101. Men toqat qilib bo'lmaydigan muvaffaqiyatsizliklardan g'amgin bo'lganimni eslay olmayman.

102. Men begona kishilarni tez-tez xafa qilib qo'yaman.

103. Ba'zan, kutilmaganda hech narsaga arzimaydigan narsalar haqida ishonch bilan gapira olaman.

104. Menda har qanday bahona izlab portlash kayfiyati bo'ladi.

105. Ko'pincha o'zimni charchagan va toliqqandek his etaman.

106. Men odamlar bilan suhbatlashishni yoqtiraman, shu sababli ham tanish va notanish kishilar bilan suhbatlashishga tayyorman.

107. Ko'pincha o'zga odamlarni shoshib baholaganimdan afsuslanaman.

108. Men ertalab odatda yaxshi kayfiyat bilan turaman va hushtak chalaman yoki ashula aytaman.

109. Men hattoki uzoq mulohazalasamda muhim masalalarni yechishda o'zimga ishonmayman.

110. Munozaralarda nimagadir o'zimning muxoliflarimga ham qattiq gapirishga urinaman.

111. Ko'ngilsizliklardan kuchli yoki uzoq vaqt ta'sirlanmayman.

112. Men tasodifan labimni tishlab yoki tirnog'imni tozalay boshlayman.

113. Men yolg'izlikda o'zimni eng baxtli hisoblayman.

114. Ba'zan atrofdagilarning bir-birini xafalashtiruvchi ziqliklardan xalos etaman

15- LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Shaxs psixodiagnostikasida proektiv metodikalaridan foydalanish.

(15-16- mashg'ulotlar)

«Geometrik figuralar bo'yicha hosil qilingan odam tasviri» testi

Maqsad: Individual psixologik farqlarni aniqlash.

Material: Raqamlangan qog'ozlar, oq qog'oz.

Proyektiv psixologiya tarixi yarim asrlik tarixga ega bo'lsada, undan oldin ham ba'zi olimlar inson proyeksiyalari masalasiga to'xtalib o'tganlar. Ularning qarashlari proyektiv psixologiya haqidagi klassik nazariyalar hisoblanadi. Proyektiv testlar masalasiga to'xtalishdan oldin proyeksiya tushunchasi mazmuniga e'tibor berish lozim. Proyeksiya tushunchasi dastlab, Z.Freyd tomonidan shaxslarning ongli va ongsiz tarzda ko'chirilgan shaxsiy xususiyatlari, tashqi obyektlarga nisbatan munosabatini ifodalash uchun qo'llanilgan. Proyeksiya lotincha «proektio» so'zidan olingan bo'lib, oldinga irgitish, tashlash ma'nosini bildiradi. Proyeksiya ba'zida insonning men mexanizmi bilan, ichki himoya kuchi sifatida namoyon bo'lishini Freyd ta'kidlaydi. Proyeksiya sublimatsiya, rasionalizatsiya, forig'lanish kabi tushunchalarni ham qamrab oladi. G.S. Frimen insondagi proyeksiyalarni shunday izohlaydi.

1. Ongsizlik holati, y'ani insonning bu holatda boshqa kishilarning g'oya, qarash, istak, emotsiya yoki xarakter xislatlarini o'ziga olishi sifatida.

2. O'z shaxsiy ehtiyojlarini boshqalarga ko'chirish sifatida .

3. Qandaydir tajribaga asoslangan noto'g'ri xulosa chiqarish sifatida qaraydi.

Bundan tashqari ba'zi olimlar aynan proyeksiya so'zini quyidagicha ifodalaydilar. Proyeksiya - voqelikni, insonlarni, namoyon qilingan stimullarni idrok etish muayyan darajada shaxsning psixik holati, ehtiyojlari, xususiyatlariga mos ravishda tafsiflash tendensiyasi mavjud. Proyeksiya—anglanmagan psixologik mexanizm sanaladi, ya'ni proyeksiya elementlari ongsiz tarzda idrok qilinadi. Bu holat klinik tadqiqotlar, psixoterapevtik izlanishlarda ham yaqqol ko'zga tashlangan. Chunki proyektiv testlarga berilgan dastlabki tariflar klinik nuqtai nazardan berilgan. Proyeksiya so'zli assosiyatsiyalar, tugallanmagan so'zlar, rasm va dog'lar, tekshiriluvchilar chizgan rasmlar, turli qo'zg'atuvchi stimullardan iborat. Lekin proyektiv metodikalar ildizi

1904-1905 yilda K.Gustav Yung tomonidan yaratilgan soʻzli assosiyatsiyalar testiga borib taqaladi. Bu metodikani yaratish bilan Yung shaxsning ongsizlik holatlaridagi kechinmalarini assotsiativ diagnostika qilish mumkinligini koʻrsatib berdi. Keyinchalik assotsiativ testning turli variantlari aybdorlik hissini aniqlashda (yolgʻon detektor) M.Veyrtgaymer va A.R.Luriya tomonidan normani patologiyadan ajratish va boshqa vaziyatlar uchun qoʻllanilgan. Proyektiv testlar qatoridagi tugallanmagan hikoya yoki gap testi ham Yungning assotsiativ testidan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Bundan tashqari Yevropaning klassik psixologiya maktabi vakillari Frenk, G.Rorshax, G. Myurrey kabi olimlarning hissasi proyektiv testlarni kelib chiqishiga keng ahamiyat kasb etadi. Yuqorida aytilgandek, dastlabki proyektiv testlar klinik xarakterda tadbiq etilgan. Proyektiv psixodiagnostikaning yuzaga kelishi G.Rorshaxning 1921 yilda Germaniyaning Bern shahrida chop etilgan «Psixodiagnostika» asari bilan bogʻlanadi. Oʻzi rassom boʻlishiga qaramay Rorshax sanʼat va rassomchilik tarixiga juda qiziqqan. Unga maʼlum boʻlishicha, buyuk rassom Leonardo Da Vinchi oʻz hayolini osmondagi bulutlar, ulardagi turli shakllarni uzoq vaqt davomida kuzatish va ularni tahlil qilish orqali mashq qildirgan. Bu xususiyat yaʼni atrofimizdagi «predmetli dunyoni jonlantirish» barchaga, ayniqsa rassomlar va yosh bolalarga xos boʻlgan xususiyatdir deb qaraldi. G.Rorshax talqiniga koʻra siyoh dogʻlari, yaʼni koʻrishga yoʻnaltirilgan siyoh dogʻlari motor (harakat) fantaziylarini jonlantiradi. Rorshaxdan avval siyoh dogʻlari bilan boshqa olimlar asosan Rossiyada F.Ye. Ribakov, Fransiya A.Bine va Vallon Anrilar tadqiqot olib borganlar. Biroq Rorshax birinchi boʻlib fantaziya obrazlarini shaxsning sifat va hislatlari bilan aloqasini isbotlab berdi. Rorshaxning tadqiqotlari gʻoyasi bugungi kunda ikki yirik yoʻnalishlarda AQSh (Beek Klopfer, Davidson Rapoport) va Yevropada (Bohm, Doosli-Listeri) bilan oʻrganilmoqda. Rossiyada Rorshax testini oʻrganishga urinishlar XX-asrning 20-30 yillariga toʻgʻri kelib, u asosan shaxsning anomal xususiyatlarini aniqlash, nevroz va psixopatiyalar diagnostikasida, shuningdek epilepsiya (tutqanoqlik) kasalligini tadqiq qilishda foydalanilgan. Shuningdek, 1935-1939 yillarda koʻpgina proyektiv testlar yaratilib psixoterapiya keng qoʻllanilgan. Bunda turli xil kasalliklar va tramvalarning shaxs psixikasiga taʼsiri, kasallik va sogʻlomlik oʻrtasidagi alomatlar oʻrganilgan. Shular qatorida 1935-yillarda jurnallarda chop etilgan tematik appersepsiya testi (TAT)ni kiritish mumkin. Bu test kelib chiqishiga koʻra fantaziya

eksperimental o'rganish metodikasi sifatida yuzaga keldi. Uning muallifi G.Myurrey hisoblanib, Rorshax testi singari kelib chiqish tarixi mavjud. Bunda shunday masala yuzaga keldi, pedagog va psixiatrlarga tekshiruvchilar uchun maxsus tanlab olingan syujetli rasmlar asosida tuzilgan hikoyaga qarab, insonning qiziqishlari, mayllari haqida xulosa chiqarish mumkinligi oldindan ma'lum bo'lib, ba'zida esa psixikaning kasallik holatini ham aniqlash imkoni mavjud edi. Bir qarashda TAT fikri Rorshax g'oyasiga qaraganda ancha sodda va aniq ko'rinar biroq, bunda muallifning qahramonlari taqdiri va rasmlari to'g'ridan-to'g'ri aks etadi-yu, ba'zilar qarama-qarshi ma'no aks etishi muammo tug'diradi. O'tgan asrning buyuk ertakshunoslari yozgan ertaklari mazmuni ham proyektiv xarakterli hisoblangan. Bu esa bolalarning turli xil psixologik xususiyat va holatlarini o'rganishda qo'l kelgan. Fransiyada Sh.Perro, Germaniyada aka-uka Grimlar juda ko'p proyektiv xarakterli ertaklar yaratgan. Bunga misol qilib «Qizil shapkacha», «Uxlab yotgan parizod», «Dono qiz», «Bo'ri bilan echki», «Qor malikasi», kabi ertaklarni keltirish mumkin. Aynan, ushbu ertaklar ham proyektiv testlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan degan ma'lumotlar mavjud. Bundan farqli ravishda proyektiv testlar masalasi va proyeksiya tushunchasi psixologiyaning bir qancha sohalarida bahsbop bo'lib kelgan. Shu jumladan eksperimental psixologiya, analitik psixologiya, xolistetik psixologiyada keng tadqiq qilingan. Analitik psixologiyada aynan ertakli proyektiv testlar orqali bolalarning ongsizlik holatlarini tadqiq etish keng yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda bu ertakli terapiya nomi bilan g'arbda mashhur sanaladi. Umuman olganda proyektiv testlar masalasi bahsbob masalaga aylanib, u olimlar o'rtasida turlicha fikrlar va qarashlarni keltirib chiqardi.

Z.Freyd fikriga ko'ra proyektiv testlar mazmunan ongsizlikni ifodalaydi shu bilan birga instinktiv xarakter kasb etadi. Xolistetik psixologiya vakillari proyeksiya masalasiga boshqacha nazar bilan qarab, u insonning subyektiv yoki ichki dunyosi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi, bu esa insondagi strukturali yashirin maqsadlar borligini ifodalaydi. Aynan shu holat barcha kishilarda «shaxsiy dunyo» deb ataladi. Bularga qarshi ravishda eksperimental psixologiya vakillari proyeksiya va proyektiv testlar masalasiga o'zgacha qaragan. Bunga ko'ra proyeksiya tushunchasi nazorat va bilish usuli, idrokli jarayon bilan xarakterlanadi: atributiv proyeksiya, klassik proyeksiya, artistik proyeksiya, ratsional «aqliy» proyeksiya, munosabatli proyeksiya va similyativ proyeksiya.

Xorijiy psixologiyada keng qo'llanilgan proyektiv metodika bu Lyusherning «Rang testi» bo'lib, u shaxslardagi konflikt, agressivlik, shaxslararo munosabatdagi kelishmovchiliklar shu bilan birga insonlarning ranglarga munosabatini aniqlashga keng imkon bergan. Bundan tashqari ushbu test sog'lomlik va kasallik o'rtasidagi tafovutlarni aniqlashda ham qulay metodika hisoblangan. Lyusher fikricha inson proyeksiyalarini ranglar bilan ham yorqin bilish mumkin. Chunki har bir kishi o'zi yoqtirgan va yoqtirmagan ranglari bilan o'z xususiyatini belgilaydi deb ta'kidladi. Keyinchalik proyektiv testlarning noverbal variantlari keng tarqala boshladi. Shular jumlasida geometrik figuralar testi, o'z rasmini chizish, manzaralar ko'rsatmasi, orqali insonlarning xissiy olami, ijodiy qobiliyatlari haqida ma'lumot olingan. Test talabiga ko'ra obyektiv mazmun kasb etgan. Chunki berilgan yo'riqnomalar bu holatni ta'minlashga xizmat qilgan. Bugungi kunga kelib proyektiv testlarning yangi modifikatsiyalari psixolog olimlar tomonidan ko'plab yaratilmoqda.

Shaxs diagnostikasida proyektiv metodikalardan foydalanish

Proyektiv texnika psixodiagnostikada keng qo'llanilsada, har bir proyektiv testlardan foydalanish uchun testlarga qo'yiladigan psixodiagnostik talablarga rioya qilish zarur. Lekin, ushbu testlarni standartga solish qiyindir. Prognozlik xarakteriga ko'ra, bir qarashda oddiy ko'rinsada, chet elda keng imkoniyatli testlar deb qaraldi. Proyektiv metodikalarning diagnostik qimmatiga e'tibor berishdan oldin, uning qo'llanilish sohalariga e'tibor berish lozim.

1. Kadrlarni saralashda, kasbga yo'naltirishda.
2. O'quv faoliyatini o'rganishda va tarbiya jarayonini samarali olib borishda.
3. Ijtimoiy xulq – atvorni aniqlashda .(Oila rasmi testi misol).
4. Harbiy chaqiruvga kelayotgan prizivni psixologik ekspertiza qilishda. (Masalan: Psixik holatlarning asosiy parametrini aniqlash testi).
5. Sud-psixologik ekspertizasida jinoyatchi motivlari va maqsadlarini ochishda (Masalan, TAT testi orqali o'smir jinoyatchilarni).
6. Psixoterapevtik yordam va psixologik konsultatsiyalar jarayonida posentlarni o'rganishda.(Agressivlik testi va frustrasiyalı vaziyat testi orqali masalan).
7. Amaliy psixologlarning turli foliyatida (Oliy ta'lim va maktab ta'limida ta'lim va tarbiya muammosida).

Yuqoridagi talablar qo'llanilish sohasi talabi bo'lsa, tadqiqodchilar uchun avvalo, testning nazariy asosini bilishi va testni aprotatsiya qila olishi asosiy talabdir. Bundan tashqari klinik psixologiyada bolalarning normal rivojlanishi va anomalialarini aniqlashda ham qo'llanilgan. Bu hol yana test imkoniyatlari yuqoriligini va ishonchligini ko'rsatadi. Lekin natijalar ba'zida standartlikni talab etadi.

Ularda tadqiqot oxirida forig'lanish, qutulish holati sodir bo'lganligi proyektiv texnikaning yana bir o'ziga xos jihati ekanligi isbotlandi. Proyektiv texnika asosan quyidagi materiallar bilan amalga oshirilgan. Suv, loy, metall parchasi, kubikchalar kabi materiallarni o'z ichiga oladi. Terapevtik o'yinlarning birida bolalarda qismlarga ajratilgan qo'g'irchoq berilgan. Ularni yig'ish holati bolalardagi agressiv holat va ota-onalariga bo'lgan munosabatni belgilagan. Teatr ko'rinishidagi o'yinlar bolalarda emotsional sakrash va katarsis (forig'lanish) holatiga olib kelgan. Test texnikasini bola bajara olmasa, ularga qo'shimcha ravishda kichik suhbat va intervyu o'tkazilgan. Asosiy muammo esa test o'tkazish emas, tadqiqodchilarning test talablaridan qo'rqishi ya'ni validlik va ishonchlik olishdan qo'rqish. Klinik psixologiyada test natijalaridan norma olishda tekshiruvchilardagi qobiliyatlar alohida etapga solinadi. Ba'zi olimlar Rorshax testi va TAT testini tahlil etishda ularni falsifikatsiya qilish kerakligini ta'kidlaydilar. Tekshiruvchilar javoblaridan qoniqmasalar tadqiqodchi yordam berishi va xohishlarini hisobga olishi kerak.

«GEOMETRIK FIGURALAR BO'YICHA HOSIL QILINGAN ODAM TASVIRI» TESTI

Ishning borishi:

Tajriba yakka holda yoki guruh sharoitida olib borilishi mumkin. Tekshiriluvchiga quyidagi ko'rsatma beriladi: siz uch xil geometrik figuralar, uchburchak, aylana va kvadrat yordamida 10 ta elementdan iborat odamni chizishingizni so'raymiz. Siz geometrik figuralardan foydalanayotganda ularni kengaytirishingiz va qisqartirishingiz ham mumkin. Ammo odamni tasvirlayotgan vaqtda bu uchala figuraning ishtirok etishi shart. Agar ortiqcha figura chizilib qolgan bo'lsa u o'chirib tashlanadi. Odam tasviridagi elementlar o'ntadan ortib ham ketmasin, kam ham bo'lib qolmasin. Suratni ushbu ko'rsatma bo'yicha tayyorlang.

Materiallar: sinaluvchmilarga 10x10 o'lchamdagi uchta qog'oz berilib, har bir qog'oz nomerlangan bo'lishi lozim. №1 varaqda birinchi sinaluvchi rasm chiziladi, №2 varaqda ikkinchi va №3 varaqda uchinchi surat mos ravishda chizilishi lozim.

Ma'lumotlarni qayta ishlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: odam tasvirida ishtirok etgan uchburchak, aylana va kvadratlar (har biri suratda alohida). Har bir figura o'ziga xos baholanadi: uchburchak yuzlik, aylana o'nlik va kvadrat birlik miqdorni ifodalaydi. Bu uchlik sonlar «surat formulasini» anglatadi.

Geometrik figura asosida konstruktiv suratni bajarishni yoritish uchun individual psixologik farqlar tizimi

901	802	703	604	505	406	307	208	109	
910	811	712	613	514	415	316	217	118	019
	820	721	622	523	424	325	226	127	028
		730	631	532	433	334	235	136	037
			640	541	442	343	244	145	046
				550	451	352	253	154	055
					460	361	262	163	064
						370	271	172	073
							280	181	082
								190	091

Tiplar:

I tip-«rahbar». Odatda bu tipdagi kishilar rahbarlik va tashkilotchilik layoqatiga ega bo'lgan odamlar hisoblanishadi. Xulq-atvorlari ijtimoiy ahamiyatga molik normalar yo'naltirilgan, yuqori darajadagi nutqiy qobiliyatga ega, yaxshi hikoyachi. Ijtimoiy muhitga tez moslashuvchan, boshqalar ustidan yetakchilik qilishda ma'lum chegara saqlaydi. Odatda ko'k rangni tanlaydi

(M.Lyusher) va «Daraxt» testida «archa» rasmini chizadi.

Rasmlar formulasi: 901, 910, 802, 811, 820, 703, 712, 721, 730, 604, 613, 622, 631, 640.

Boshqalar ustidan keskin hukmronlik qilish 901, 910, 802, 811, 820; situativ- 703, 712, 721, 730: odamlarga so'z orqali ta'sir ko'rsatishga – vebal rahbar yoki «o'qituvchilik» tipi-604, 613, 622, 631, 640.

Bu tiplarni namoyon bo'lishi psixik taraqqiyot darajasiga bog'liqligini e'tiborga olish lozim. Individual farqlar yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, yetarlicha anglashga egalikdan dalolat beradi. Quyi darajada esa professionalizm sezilmaydi, vaziyatlarga moslashishi qiyin. Bu barcha xarakterlar uchun xosdir.

II tip-«mas'uliyatli ijrochi»- «rahbarlik»ning bir qator sifatlarini o'zlashtirgan, biroq mas'uliyatli qarorlarni qabul qilishda ancha haya-jonlanadi. Bu tipdagi odamlar «ishning ko'zini biladigan», professionalizm, yuqori tuyg'ularga ega, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan mas'uliyatli va talabchan, haqiqatni qadrlaydi. Ular ko'pincha somatik kasalliklar bilan og'rinib turishadilar. Asabiy jihatdan ancha zo'riqqan bo'lishadi.

Rasmlar formulasi: 505, 514, 523, 532, 550.

III tip- «bezovtali-sust» - oddiy qo'l malakalaridan tortib yuqori adabiy iqtidorga – har xil qobiliyat va iqtidorga ega. Odatda ular bir tipdagi kasblarga xos bo'lsa-da, ammo kutilmagan hollarda uni o'zgartirishga, ikkinchi bir qiziqadigan kasbga ham ega bo'ladilar. Ular odatda boshqa odamlar bilan nizoga borishga moyillar. Yuqori va o'zidan shubhalanishga moyil.

Suratlar formulasi; 406, 415, 424, 433, 442, 451, 460, bundan tashqari 415 – «shoirona tipcha»-shoirona iqtidorga ega ; 424 esa- gaplar bo'yicha anglab oladigan tip bo'lib, bu tipdagilar ishda xotirjamligi bilan ajralib turadi.

IV tip – «olim». Bu tipdagi kishilar reallikni osongina mayhum-lashtirishga, «konseptual aqlga», «hamma narsani» tahlil qilishga mos

nazariyasiga ega, qobiliyatligi bilan ajralib turadi. Odatda ular ruhan xotirjam, o'z xatti-harakatlarini obdon o'ylab amalga oshirishadi.

Suratlar formulasi: 307, 316, 325, 334, 343, 352, 361, 370. 316 tipcha nazariya yaratishga moyil tip, u global, murakkab va katta ishlarni amalga oshiradi: 325-tipchasi esa hayotni, sog'liqni, biologiyaga oid fanlarni, tibbiyotni bilishga o'ta qiziquvchan. Bu tip vakillari san'atning sintetik ko'rinishdagi turlari: kino, sirk, teatr-tomosha rejessyori, multiplikatsiya bilan shug'ullanadigan odamlar orasida uchraydi.

V tip – «intuitiv». Bu tipdagi odamlar asab tizimi ancha hissiy kuchga ega, ularda yuqori toliqish kuzatiladi. Bir faoliyatdan ikkinchi bir faoliyatga oson o'tib ketishadi, yangi imkoniyatlarga ega. Yangilikni tushinishda yuqori sezgirlik mavjud. Altruist, mohir qo'lli va obrazli hayolga ega, texnik ijodkorlikka moyil. Odatda ijtimoiy normalarni o'zini moslashtira oladi. Ichki o'zini o'zi nazorat qilishga ega, uning erkinligiga to'siq bo'luvchi holatlarni qabul qila olmaydi, o'zini o'zi nazorat qilishni yoqtiradi.

Suratlar formulasi: 208, 217, 226, 235, 244, 253, 262, 271, 180. 235 tipcha – psixologiyaga va psixolog mutaxassislarda uchraydi; 244-badiiy ijodga qobiliyatli kishilar, 217- kashfiyotchilik faoliyatiga moyil kishilar; 226- yangilikka yuqori ehtiyodj sezadigan, o'ziga maqsadga erishishi uchun yuqori talab qo'yadigan kishilar.

VI tip-«kashfiyotchi, konstruktor, rassom». Texnika bilan mashg'ul kishilar orasida ko'proq uchraydi. Bu tipdagi odamlarda boy hayoliy obrazlar, fazoviy ko'ruvchanlik, tez-tez texnik ,badiiy va intellektual ijodkorlik xos. Ular introvert, intuitiv tip singari shaxsiy axloqiy normalari bilan yashashadi, o'zlarini nazorat qilishdan tashqari boshqa chet ta'sirlarni qabul qilishmaydi.

Suratlar formulasi: 109, 118, 127,136, 145, 019, 028, 037, 046.

019 tipcha- auditoriyani o'ziga jalb qiluvchi kishilar hisoblanishadi; 118- konstruktiv imkoniyatga va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega shaxs hisoblanadi.

VII tip – «emotiv». Boshqa kishilarga hamdard, «og'ir» kino filmlarni juda qiyinchilik bilan ko'rishadi. Uzoq vaqt emotsional ta'sirlar ostida bo'lishadi. Ko'p quvvatni hayajonlanganlari bois yo'qotishadi. Qobiliyatlarini namoyon qilishga ancha qiynalishadi.

Suratlar formulasi: 550, 451, 352, 361. 370, 253, 262. 271, 280, 154, 163, 172, 181, 190, 055, 064, 073, 082, 091.

VII tip – emotiv tipga teskari tip hisoblanadi. Ular o'zga kishilarning kechinmalarini his qilishmaydi, atrofdagilarga nisbatan

e'tiborsiz Yaxshi mutaxassis o'zi bajaradi, u boshqalarni bajarishi lozim deb majburlashga moyil. Unda ba'zan «jizzakilik», situativ ravishda gavdalanadi.

Suratlar formulasi: 901, 802, 703, 505, 406, 307, 208, 109.

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

№	F.I.SH	Yoshi	Jinsi	Rasm formulasi qiymati	Mansublik tipi
1	Ahmedov Asilbek	14	Er	712	I tip-»rahbar».
2	Karimov Javlon	17	Er	118	VI tip- «kashfiyotchi, konstruktor, rassom»
3	Xolmatov Elbek	15	Er	550	VII tip –«emotiv»
4	G'afurova Muxlisa	18	Ayol	208	V tip –«intuitiv»
5	Botirqulova Laziza	25	Ayol	505	II tip- «mas'uliyatli ijrochi»

16-LABORATORIYA ISHI

Mavjud bo'lmagan hayvon testi

Maqsad: Shaxsni proektiv o'rganish. Bunda shaxs hissiy jabhasiga ta'lluqli: agressiya, o'z-o'ziga baho, qo'rquv, o'z Meniga munosabati va boshqa jihatlar asosiy komponent hisoblanadi

Material: Mavjud bo'lmagan hayvon testi namunasi, oq qog'oz.

Ishning borishi:

Har bir talabalarga (sinaluvchilarga) bir varaqdan oq qog'oz tarqatadi. O'qituvchi talabalarga (sinaluvchilarga) tabiat (fauna) da mavjud bo'lmagan hayvonni chizib berishni so'raydi. Albatta bu rasmga nom qo'yishni ham aytib o'tadi.

Chizilgan har bir rasm (sinaluvchi) uchun alohida bayonnoma to'ldiriladi. Bayonnomada rasmda ifodalangan asosiy xususiyatlar e'tiborga olinadi.

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

MAVJUD BO'LMAGAN HAYVON TESTI SHARHI

Agar rasm varaqning o'ng tomonining yuqori qismidan o'rin olgan bo'lsa, bu holat ayni dam bilan bog'liq yoki kelajakka aloqador hisoblanadi, ijobiy emotsiyani ifodalaydi.

Rasm chap tarafda varaqning pastgi qismidan o'rin olgan bo'lsa, u holda o'tmish bilan bog'liq, faolsizlik va salbiy emotsiyani ifodalaydi. Rasmdagi me'yordagi holat rasmning varaqning o'rta qismida joylashganligidan bilinadi. Agar rasm varaqning yuqori qismiga joydlashgan bo'lsa, bu yuqori o'zini baholash va o'zining jamiyatdagi o'rnidan noroziligidan dalolat beradi. Atrofdagilar tomonidan tan olimayotganligi, ko'proq noroziliklar bildirishga moyilligini bildiradi.

Rasm varaqning pastgi qismiga yaqin bo'lsa, o'ziga ishonchmaslik, o'z-o'zini past baholash, qat'iyatsizlik, ta'sirlarga tushib qolganlikni anglatadi.

Agar rasmdagi hayvonning yuoshi o'ng tomonga qaratilgan bo'lsa, u holda insonning amalga oshirilayotgan ishlari yoki nimani amalga oshirmoqchi bo'lsa rejali bajarishidan dalolat beradi.

Agar rasmdagi hayvon boshi chapga qaratilgan bo'lsa, u holda bunday kishilar amalga oshirilayotgan ishlarida jur'at yetishmaydi, kam mulohazalovchi hisoblanadi.

«Yuz» ko'rinishi, ya'ni bosh holati chizuvchiga qarab chizilgan bo'lsa, u holda bu egosentrizmdan dalolat.

Bosh detallarining ma'nosi:

Quloq: axborotlarga qiziquvchanlik, atrofdagilarning u to'g'ri-sidagi fikrlari qiziqtiradi, atrofdagilarning unga beradigan baholariga his-tuyg'uli, payti bo'lsada o'z xatti-harakatlarini o'zgartirmaydi.

Ochilib qolgan og'iz til bilan ifodalansa, vaysaqi, labning aniq chizilganligi-sezgirlik. Til va lab aniq chizilmagan ochiq og'iz-ishonchsizlik, qo'rquv borligi, Og'iz tish bilan ifodalansa-og'zaki tajavuzkorlik alomati (haqoratlovchi, qo'pol, tahdid qiluvchi).

Ko'z. Ko'zning alohida ajratilib chizilganligi- bu chizgan insonda qo'rquv borligini bildiradi. Kipriklarni ifodalanishi-xulq-atvorida namoyikoronalik, kiyinishi va yurish-turishi bilan atrofdagilarga o'zini ko'rsatmoqchi bo'luvchi.

Hayvonning boshida qo'shimcha detallari bo'lganda:

Shox-tajovuzkorlik, agar agressiyani boshqa belgilari tirnoq, nina-agressiyaning xarakterini ifodalaydi, u tasodifiy yoki himoyalaniish bo'lishi mumkin.

Patli - namoyishkoronalik, o'zini oqlash va o'zini bezashga moyillik.

Yol, jun-sezgirlik, o'z jinsini qayd etuvchanlik.

Hayvonning oyog'i, panjalari: asoslilik, mulohazali, qaror qabul qilishda amaliy yondashuvchan. Oyoqning yo'qligi yoki nozik oyoq-atroficha o'ylovchi, xulosa chiqarishda yengiltabiat, impulsiv xulosa chiqaradi. Bir xillik, oyoqlarning bir-birini takrorlashi (ko'poyoqlik)-mulohazalarga tobe, standartlashib qolgan va siyqasi chiqqan. Oyoqlarning xilma xilligi, panjalar mustaqillik, siyqasi chiqmagan, originallik, ijodkorlikdan dalolat beradi.

Qismlarning figura darajasiga ko'tarilganligi:

Qanot, paypaslagich, qisqich-xohishning hayotning barcha soha-lariga yo'nalganligidan dalolat beradi, qiziquvchanlik, jasurlik, shijoat-lilik, o'ziga ishonch ifodalaydi.

Bezak beruvchi detallar - bantik, qo'ng'iroq soch-namoyishkoronalik, xohishni o'ziga qaratilganligi, ustamolik.

Dum-yuqoriga qaratilgan bo'lsa, inson xatti-harakatlarini, qarorlarini ijobiy baholaydi, dum pastga qaratilgan bo'lsa-aytilgan, bajarilgan narsalar yuzasidan o'zidan norozilik, achinishni anglatadi. Dum o'ngga qaratilgan bo'lsa, inson munosabati o'z xatti-harakatlari yoki xulqiga qaratilgan munosabatni, chapga qaratilgan bo'lsa – fikrga, qarorlarga munosabatni anglatadi.

Figura konturlari - qalqon, sovut mavjudligi atrofdagilardan himoyalaniş, nina, o'tkir burchakli sovut tajovuzkorlik, Qora qilib chizilgan chiziqlar, chiziqlarni ikkilanganligi shubhalanish, qo'rquv, bezovtalanish. Ushbu himoyalanişlarning joylashuv o'rniga ko'ra: yuqoriga joylashtirilgan bo'lsa ota-ona, o'qituvchi, boshliqlardan, pastda aks ettirilgan bo'lsa muhokamadan, kichiklarda nufuzning yo'qligi, tobelikni anglatadi; yon tomonda chizilgan bo'lsa-himoyaga tayyorlik va har xil vaziyatlarda har xil tarzda o'z-o'zini himoyalash.

Rasmni bosibroq chizish-chiziqlarni orqa tomondan ham ko'rish (chizgan qo'lda yuqori darajada titrash tonusi mavjud), keskin bezovtalanish (qanday detalga alohida urg'u berib chizilganiga qarab).

Hayvonning umumiy holati baho: tajovuzkor, tajovuz qilishga tayyorlangan va beozor - bu har shaxsning o'ziga munosabati, o'z Meniga munosabati, uning olamga munosabati, o'zini nimaga o'xshatishi (quyon, fil, ya'ni chizilgan rasmga ko'ra). Ushbu suratlarda chizilgan narsa, chizuvchining o'zi sanaladi.

Aylana shakl, hech narsa to'ldirilmagan holda tundlik, ichki olami berkligidan dalolat beradi.

Mexanik qismlarni ichiga joylashtirilganlik-hayvonning jonli qismi sifatida ishlatilganligi tank oyog'ini qo'llanilganligi, simlar, antenna – shizoidlik, shizofreniyaga moyillik bor.

Nomlanishi - agar nomlanish, mazmunli qism bilan ratsional bog'langan bo'lsa, ratsionallik, moslashishga qobiliyatlikni; nomlanishga ilmiy tus berilgan bo'lsa-intellektda namoyishkoronalik, eruditsiya; har xil ma'noli o'vozli, tovushli tarzdagi – yengiltaklik, havfga bo'lgan ogohlantirishlarni sezmaslik; taqdir taqozosiga ko'ra berilgan nomlar atrofga nisbatan iltifotli. Haddan ortiq uzun nomlash himoyalaniş, himoya tarzda fantaziya moyillik.

17 - LABORATORIYA ISHI

Mavzu: Shaxsning temperament xususiyatlarini tadqiq qilish.
(17-18- mash'ulotlar)

Ya.Strelyau «Temperament tuzilishini o'rganish» so'rovnoma

Maqsad: Shaxsning temperament xususiyatlarini o'rganish.

Material: Ya.Strelyau «Temperament tuzilishini o'rganish» so'rovnoma.

Boshqariluvchi temperament nazaryasi (B T N). Bu so'rovnoma Yan Strelyau tomonidan Pavlov g'oyasi asosida ishlab chiqilgan, g'oya asosida individning atrof muhitga ko'nikishida temperament katta rol o'ynaydi, bundan tashqari asos bo'lib D. Xebboning hissiyotning optimal ko'rinishi darajasi bo'lgan. Boshqariluvchi temperament nazaryasiga binoan temperament strukturasida reaktivlik (individning his qilish va chidamliligi yoki ishga layoqati) va aktivligi buning ko'rinishi harakatning o'zaro almashinuvida kuzatiladi (aniq maqsadli harakatlar) ta'sirning o'lchovi bo'yicha.

Strelyau boshqariluvchi temperament nazaryasi bo'yicha isbotlanmagan holatlarni belgilab ko'rsatadi. Misol uchun nisbiy barqaror individ mavjud bo'lib xulq xarakteristikasi bo'yicha asosiy ikki kategoriyaga asoslanadi. Intensivligi (hulq atvorni faol shakli) va vaqt (vaqtincha hulq atvor ko'rsatkichlari)

Odamlar va hayvonlarning xatti harakatlari qanchalik o'ziga xos bo'lmasin barcha sut emizuvchilar intensiv va vaqtincha kategoriyaga xarakter sifati qaratilgan bo'ladi. Shunday qilib temperament hayvonlarda va odamlarda ham o'rinnidir.

Temperament xarakteristikasi bu biologik evolutsiya mahsulidir va uning genetik asosi bo'lishi lozim. U o'z o'rnida psixologik xarakteristika orqali individning temperamentdagi farqini belgilaydi.

Bu so'rovnoma nerv sistemasining asosiy uch xarakteristikasi tipini o'rganishga yo'naltirilgan: Hissiyotning qo'zg'alish darajasi, tormozlanish kuchi darajasi, harakatlanish kuchi darajasi. Bundan tashqari qo'zg'alish va tormozlanish darajasini kuchi bo'yicha me'yorini ko'rsatadi.

Test 4 shkaladan tashkil topgan 134 ta savollardan iborat.

Ishning borishi:

Sinaluvchilarga quyidagi savollarni diqqat bilan o'qing va ularga «ha» («+») yoki «yo'q» («—»), agar javob berishga ikkilansangiz u

holda «bilmayman» («?») javobini bering. Marhamat qilib, javoblaringizni so'rovnomaning javoblar varaqasiga belgilang ko'rsatmasi beriladi va metodika namunasi hamda javoblar varaqasi tarqatiladi.

Ushbu so'rovnoma 4 shkaladan tashkil topgan va bular quyidagilar.

1. Qo'zg'alish kuchi (F_Q)
2. Tormozlanish kuchi (F_T)
3. Harakatchanlik kuchi (F_H)
4. Muvoztatlanish kuchi $A = F_T / (F_H)$

Ya.Strelyau «Temperament tuzilishini o'rganish» so'rovnomasini ballash yo'riqnomasi

Temperament xususiyatlari	Ha	Yo'q
Qo'zg'alish kuchi	3,4,7,13,15,17,19,21,23,24,32,39,45,56,60,61,66,72,73,78,81,82,83,94,97,98,102,105,106,113,114,117,121,122,124,130,132,133,134.	47,51,107,123.
Tormozlanish kuchi	2,5,8,10,12,16,27,30,36,37,38,41,48,50,52,53,62,65,69,70,75,77,84,87,89,90,96,99,103,108,109,110,112,118,120,125,126,129.	18,34,36,59,67,128.
Harakatchanlik	1,6,9,11,14,20,22,26,28,29,31,33,40,42,43,44,46,49,54,55,64,68,71,74,76,79,80,85,86,88,91,92,93,95,100,101,107,111,115,116,119,127,131.	25,57,63,116.

Tadqiqot bayonnomasini to'ldirish ko'rsatmasi.

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

№	F.I.SH	To'plangan ballarning ifodalanishi			
		F_O	F_T	F_H	A
1	Ahmedov Asilbek	48	50	64	1.3
2	Karimov Javlon	62	60	50	0.81
3	Xolmatov Elbek	70	58	72	1.02
4	G'afurova Muxlisa	43	48	38	0.88
5	Botirqulova Laziza	38	50	38	1

Strelyau bo'yicha ballash mexanizmi:

Javoblar mos kelsa -2 ball

Mos kelmasa - 0 ball

Javob berishga qiynalsa - 1 ball.

№	SHKALA	KO'RSATKICH
1	Qo'zg'alish kuchi (F_O)	
2	Tormozlanish (F_T)	
3	Harakatchanlik (F_H)	
4	Muvozanatlashganlik kuchi: $A = F_H / (F_O)$	

So'rovnomaga natijalari tahlil qilgandan keyin har bir shaxsni to'plagan ballariga qarab xulosalar chiqariladi. Bunga ko'ra

- <42 -balldan past bo'lsa ushbu xususiyatning yaxshi mujassamlashmaganligini ifodalaydi.

- >42- balldan katta bo'lsa ushbu xususiyatning yaxshi mujassamlashganligini ifodalaydi.

- (F_O)<42, melanxolik

- (F_O)>42, psixologik faol, uzoq vaqt davomida barqaror mehnat qila olish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy mehnatni bajarishga ancha mas'uliyatli.

- Muvozanatlashganlik kuchi:

$A = F_H / (F_O)$. Agar $F_H / (F_O)$ ning qiymati 1 ga teng bo'lsa shunchalik muvozanatlashganlik yuqori.

- **0,85-1,15 oralig'idan muvozanatlashganlik.** Agar ushbu chegaradan chetga chiqsa yoki 0,85 dan past bo'lsa bu toifa odam qo'zg'alishga nisbatan muvozanatsiz, muvozanatsiz tormozlanish yetakchilik qiladi.

1.15- muvozanatsiz tormozlanish yetakchilik qiladi.

Ya. Strelyau shaxs so'rovnomasi matni

1. Siz odamlar bilan tez chiqishib ketasizmi?
2. Siz aniq ko'rsatma olmaguncha u yoki bu harakatlardan o'zingizni chetga olishga qodirmisiz?
3. Siz toliqtiradigan ishdan so'ng uzoq vaqt dam olishingiz kerakmi?
4. Siz noqulay sharoitda ishlay olasizmi?
5. Siz ish yuzasidan bo'lmagan, emotsional bahslardan o'zingizni chetga olasizmi?
6. Siz uzoq vaqtli tanaffusdan, masalan ta'til yoki dam olishdan so'ngra ishga oson kirishib keta olasizmi?
7. Agar ish sizni to'liq o'ziga jalb qilsa charchoqni unutasizmi?
8. Siz kimgadir topshiriq berib, uning tamom bo'lishini sabr-toqat bilan kutishga qodirmisiz?
9. Siz sutkaning turli vaqtida oson va bir xilda uxlay olasizmi?
10. Sizdan iltimos qilganda buni sir tuta olasizmi?
11. Sizda bir necha hafta yoki oy bajarmagan ishingizga qaytish osonmi?
12. Siz sabr-toqat bilan tushuntira olasizmi?
13. Sizga aqliy zo'riqishni talab qiladigan ish yoqadimi?
14. Sizda bir xil bajariladigan ish zerikish yoki uyquga olib keladimi?
15. Siz kuchli zo'riqishni tez tarqatib yubora olasizmi?
16. Sizdan talab etilganda o'z ustunligingizni namoyon qilmaslikka urinasizmi?
17. Notanish kishilar orasida o'zingizni tabiiy tutasizmi?
18. Sizda jahl yoki g'azabni yashirish qiyinmi?
19. Og'ir damlarda o'zingizni boshqara olasizmi?
20. Atrofdagilarning xulq-atvoriga o'z xatti-harakatlaringizni moslashtira olasizmi?
21. Mas'uliyatli ishni bajarishni o'z zimmangizga ola olasizmi?
22. Odatda atrof-muhit sizning kayfiyatingizga ta'asir ko'rsatadimi?

23. Siz muvafaqqiyatsizliklardan xalos bo'lishga qobiliyatlimisiz?
24. Siz kimlarnidir fikrlarini qadrlab, odatdagidek erkin gapira olasizmi?
25. Sizning kun tartibingizdagi kutilmagan o'zgartirishlar asabingizni buzadimi?
26. Hamma narsaga Sizda «tayyor javoblar» bormi?
27. Muhim qarorlar (masalan, kirish imtihonlari natijalari) qabul qilishda o'zingizni boshqara olasizmi?
28. O'z ta'lingizni birinchi kundanoq tashkil eta olasizmi?
29. Sizni «tezkor» odam deb baholasa bo'ladimi?
30. Siz harakatlaringizni sekin yuruvchi kishining harakatlariga tez moslashtirasizmi?
31. Siz tez uyg'onasizmi?
32. Siz yig'ilish va kechalarda bemalol ma'ruza qila olasizmi?
33. Sizni kayfiyatingizni buzish osonmi?
34. Sizni ishdan ajratib olish qiyinmi?
35. Agar suhbat boshqalarga xalaqit bersa o'zingizni chetga olasizmi?
36. Nimanidir ataylab ig'vo qilasiz yoki yo'ldan ozdira olasizmi?
37. Siz odamlar bilan oson chiqishib keta olasizmi?
38. Agar oldingizda muhim ish turgan bo'lsa doimo siz o'z xatti-harakatlaringiz haqida atroflicha o'ylaysizmi?
39. Siz muallifning fikri bo'lsa ham matnni boshidan oxirigacha ko'zdan kechirib chiqasizmi?
40. Sizda yo'lovchilar bilan suhbatga kirishish osonmi?
41. Siz suhbatdoshingizni nohaq isbotiga befarq bo'lasizmi?
42. Siz chaqqonlik bilan qo'lda bajarishni talab qiladigan ishni bajonidil qabul qilasizmi?
43. Siz qaroringizni boshqalarning fikriga ko'ra o'zgartirasizmi?
44. Siz yangi ishga tez moslasha olasizmi?
45. Siz kunduzi ishlasangiz yana kechasi ham ishlay olasizmi?
46. Romanlarni tez o'qib chiqasizmi?
47. Siz agar to'siqlarga duch kelsangiz niyatlaringizdan tez-tez voz kechasizmi?
48. Siz sharoit taqozosiga ko'ra o'zingizni tutib tura olasizmi?
49. Qiyinchiliksiz tez o'ylab qolasizmi?
50. Siz lahzali beixtiyor ta'sirlardan o'zingizni chetga olib tura olasizmi?
51. Siz shovqinda ishlay olasizmi?

52. Siz «haqiqatni bila turib» vaziyat tufayli o'zingizni chetga olib turasizmi?
53. Siz imtihon yoki rahbariyat bilan uchrashuv oldidan hayajonni yashira olasizmi?
54. Siz qismli tanaffuslarni yoqtirasizmi?
55. Siz yangi muhitga oson moslasha olasizmi?
56. Siz o'tgan kundagi og'ir mehnatda yo'qotgan kuchingizni kechki dam olishdan so'ngra qayta tiklay olasizmi?
57. Har xil harakatli va bajarish muddati cheklangan ishlarni bajarishdan qochasizmi?
58. Qiyinchiliklarga qarshi o'zingiz mustaqil kurashasizmi?
59. Siz suhbatdoshingiz gapini bo'lib qo'yasizmi?
60. Siz suzishni bilmasangiz ham cho'kayotgan odamni qutqazish uchun suvga sakraysizmi?
61. Siz uzoq vaqt ish bilan mashg'ul bo'la olasizmi?
62. Siz noo'rin tanbehlardan o'zingizni tiyib tura olasizmi?
63. Siz ishda va davralarda o'zingizni o'rningizga egamisiz?
64. Sizda bir ishdan boshqasiga o'tish osonmi?
65. Muhim qaror qabul qilishda «ha» va «yo'q» deyishni taroziga solib ko'rasizmi?
66. Siz to'siqlarni oson bartaraf eta olasizmi?
67. Siz begonalarni xati va narsalariga nazar solasizmi?
68. Siz uchun bir xil bo'lib qolgan harakat va mashg'ulotlar zerikarlimi?
69. Siz jamoat joylarida xulq-atvor qoidalariga rioya qilasizmi?
70. Siz suhbatda yoki chiqishlarda ortiqcha harakat va imo-ishoralardan foydalanmaslikka urinasizmi?
71. Siz vaziyatlarni jonlanishini yoqtirasizmi?
72. Siz ko'p kuch talab etuvchi faoliyatni yoqtirasizmi?
73. Siz ma'lum topshiriqlarni bajarishda diqqatingizni uzoq vaqt to'plab tura olasizmi?
74. Siz harakatli va mashg'ul bo'lishni talab etadigan ishni yoqtirasizmi?
75. Siz qiyin hayotiy vaziyatlarda o'zingizni boshqara olasizmi?
76. Agar zarur bo'lsa uyqudan uyg'ongach, birdan o'rningizdan turib ketasizmi?
77. Siz agar talab etilsa olingan ishni yakunlashni hali boshqa ishlaringiz yakunlanmasdan kutib turishga qodirmisiz?

78. Noxush holatni ko'rganingizdan keyin ham ishni oldindagidek aniq davom ettirasiz va bajarasizmi?
79. Siz kundalik gazetalarni tezda ko'zdan kechirib chiqasizmi?
80. Tez gapirganingizda sizni o'pkalashga hojat qolmaydimi?
81. Siz miriqib uxlamasdan me'yorda ishlay olasizmi?
82. Siz tanaffussiz uzoq vaqt ishlay olasizmi?
83. Siz tishingiz va boshingiz og'risa ham ishlaysizmi?
84. Agar zarur bo'lsa o'rtoqlaringiz dam olayotgan va sizni kutib turgan paytlarda ham ishni xotirjam tamomlaysizmi?
85. Siz kutilmagan savollarga risoladagidek tez javob bera olasizmi?
86. Siz odatda tez gapirasizmi?
87. Agar mehmon kutayotgan bo'lsangiz xotirjam ishlay olasizmi?
88. Siz aniq dalillar ta'sirida o'z fikrlaringizni o'zgartirasizmi?
89. Siz sabr-toqatlimisiz?
90. Siz ancha sekin harakat qiladigan odamning ish maromiga moslasha olasizmi?
91. Siz bir necha harakatni birga bajarishda ishni rejalashtira olasizmi?
92. Quvnoq davra sizning kayfiyatingizni o'zgartiradimi?
93. Siz hech qiynalmasdan bir nechta ishni bir vaqtni o'zida bajara olasizmi?
94. Siz ko'chadagi noxush voqeaning guvohi bo'lganingizda ruhiy muvozanatni saqlay olasizmi?
95. Siz har xil murakkab va nozik harakatlarni talab etuvchi ishni yoqtirasizmi?
96. Siz yaqin odamlaringizdan birortasi istirob chekkanida o'zingizni xotirjam tuta olasizmi?
97. Siz qiyin hayotiy vaziyatlarda mustaqil bo'la olasizmi?
98. Siz notanish va katta davralarda o'zingizni erkin tutasizmi?
99. Agar talab etilsa suhbatni tezda to'xtatishingiz mumkinmi?
100. Siz boshqalarning ish usuliga oson moslashasizmi?
101. Siz ishning turini tez-tez almashtirishni yoqtirasizmi?
102. Siz biron-bir hodisa yuz berganda tashabbusni o'z qo'lingizga olishga qodirmisiz?
103. Siz kulgidan o'zingizni saqlaysizmi?
104. Siz birdaniga jadal ishlab keta olasizmi?
105. Siz agar haqligingizni bilsangiz ham jamoaning qabul qilgan fikrga qarshi chiqa olasizmi?

106. Siz vaqtli ziqlikni bartaraf eta olasizmi?
107. Siz aqliy mehnatdan charchab, qiyin holatga tushib qolasizmi?
108. Siz uzoq kuta olasizmi?
109. Siz urinishlar hech narsaga olib kelmasligini oldindan bilib, o'zingizni chetga olib turasizmi?
110. Siz nizoli vaziyatlarda o'z mulohazangizni xotirjam bayon eta olasizmi?
111. Siz kutilmagan holatlarga tez javob bera olasizmi?
112. Agar sizdan buni iltimos qilsalar o'zingizni bimalol tuta olasizmi?
113. Siz shifokorning kasallik to'g'risidagi ko'rsatmalarini bezovtalanmasdan qabul qilasizmi?
114. Siz jadal ishlay olasizmi?
115. Siz dam olish va ko'ngil ochish joyini bajonidil o'zgartirasizmi?
116. Sizga yangi ish tartibiga ko'nikish qiyinmi?
117. Siz baxtsiz hodisalarda yordamga shoshilasizmi?
118. Siz sirkda, sport bahslarida qichqiriq va xatti-harakatlardan o'zingizni saqlaysizmi?
119. Siz har xil odamlar bilan vaqti-vaqti bilan suhbatlashishni talab etuvchi mashg'ulotni va ishni yoqtirasizmi?
120. Siz o'z mimikangizni boshqara olasizmi?
121. Siz aniq va kuchli harakatlanishni talab etuvchi ishni yoqtirasizmi?
122. Siz o'zingizni jasur odam deb hisoblaysizmi?
123. Noodatiy sharoitlarda sizning gapirishingiz qiyinmi?
124. Siz omadsizliklar va g'amginliklarni bartaraf eta olasizmi?
125. Sizdan iltimos qilsalar uzoq vaqt xotirjam tura olasizmi?
126. Siz o'z quvonchingiz kimnidir ranjitsa uni bir lahza bo'lsa-da cheklay olasizmi?
127. Siz g'amginlikdan quvonchli holatga oson o'ta olasizmi?
128. Sizga ta'sir o'tkazish osonmi?
129. Siz qiyinchiliklarsiz xulq-atvor qoidalariga rioya qilasizmi?
130. Siz jamoat oldida so'zga chiqa olasizmi?
131. Siz ishga odatdagidek uzoq tayyorgarlik ko'rmasdan tez kirishib ketasizmi?
132. Siz hayotga tavakkal qilib, boshqalarga yordam berishga tayyormisiz?
133. Sizning harakatlaringiz jonlimi?
134. Siz jamoat ishini bajonidil bajarasizmi?

18- LABORATORIYA ISHI

Ekstraversiya–introversiya va neyrotizmni aniqlash.

(G.Yu.Ayzenk so'rovnomasi).

Maqsad: Ekstraversiya–introversiya va neyrotizmni tadqiq etish.

Material: Ayzenk so'rovnomasining (A shakli) blanki va javoblar varaqasi.

G.Yu.Ayzenk o'zining ikki omilli shaxs modelida asosiy xususiyatlar sifatida ekstraversiya-introversiya va neyrotizmdan foydalandi. Umumiy ma'noda:

- **Ekstraversiya** – «ichkaridan tashqariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga moyil shaxslar ko'proq odamlar ichida bo'lishni yoqtirishadi, o'z kechinmalarini ko'proq atrofdagilar bilan baham ko'radi. Muloqotga kirishuvchan, tanishlar doirasi keng. Ba'zi hollarda jiddiylilik yetishmaydi. Odamlarning tez ishonchini qozona oladi va shuningdek, tez xafa qilishga ham moyil.

- **Introversiya** – «tashqaridan ichkariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga xos shaxslar og'ir, vazmin, ko'ngli nozik, beparvo, do'stlik qoidalariga qat'iy amal qiladigan. Muloqot doiralari cheklangan, tortinchoq, ko'proq o'zlarining ichki dunyolari bilan band va yolg'izlikni yoqtiradigan.

- **Neyrotizm** – nerv sistemasining xususiyatiga ko'ra, insonning o'z faoliyatini, asab tonusini boshqarishidan iborat psixo-fiziologik jihat.

Testning mazmuniga ko'ra, ushbu shkalalar insonning genetik jihatdan qaysi tipga xos ekanligini anglatadi.

So'rovnoma 57 savoldan iborat bo'lib, 24 savol ekstraversiya–introversiya, yana 24 savol neyrotizm va 9 savol nazorat shkalasiga daxldor.

Ishtirokchining borishi: Eksperiment individual yoki guruhli shaklda o'tkazilishi mumkin. Eksperimentator tekshiriluvchilarga quyidagi yo'riqnoma bilan murojaat etadi.

Yo'riqnoma: test savollariga javob berishda birinchi paydo bo'lgan fikrni qayd eting, ortiqcha fikr mulohaza yuritmang. Testda to'g'ri yoki noto'g'ri javob mavjud emas. Test savolnomasidagi vaziyatlar hayotingizda qanchalik darajada uchrashiga e'tibor bering. Imkon qadar savollarga ochiq javob berishga harakat qiling. Savollarga javoblar variantini mos kelishi yoki kelmasligiga qarab, **ha** va **yo'q** tarzda javob berish mumkin. Javoblaringizni maxsus javoblar varaqasiga belgilang.

Tadqiqot bayonnomasini to'ldirish bo'yicha ko'rsatma.

BAYONNOMA

Tekshiriluvchi:

Tekshiruvchi:

Tekshiriluvchining ruhiy holati:

Sana:

№	F.I.SH	To'plangan ballarning ifodalanishi			
		Ekstra-introversiya	Neyrotizm	Yolg'on	Yakuniy xulosa
1	Ahmedov Asilbek				
2	Karimov Javlon				
3	Xolmatov Elbek				
4	G'afurova Muxlisa				
5	Botirqulova Laziza				

Olingan natijalarga ko'ra shaxs xususiyatlari to'g'risida ma'lum bir xulosalarga kelinadi. Olingan natijalar shaxs temperamenti to'g'risida ham ma'lum bir xulosalarni ifodalashga xizmat qiladi. Natijalarni individual yoki guruhiiy tarzda ifodalash mumkin.

G.Yu.Ayzenk so'rovnomasi matni

1. Siz tez-tez o'zingizga kuch g'ayrat bag'ishlovchi ta'sirotlarga moyillik sezasizmi?
2. Siz tez-tez Sizni tushunadigan va qo'llab-quvvatlaydigan do'st kerakligini his qilasizmi?
3. Siz o'zingizni beg'am odam, deb hisoblaysizmi?
4. Sizda oldingizga qo'ygan maqsadlardan voz kechish qiyinmi?
5. Siz biron-bir faoliyatni amalga oshirishdan oldin atroflicha o'ylab, so'ng harakat qilasizmi?

6. Siz foydali bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar va'dangizda turasizmi?

7. Sizda kayfiyatning ko'tarilishi va tushishi tez-tez yuz beradimi?

8. Sizda tez gapirish va tez harakatlanish bo'ladimi?

9. Hech qanday jiddiy sabab bo'lmasa ham o'zingizni baxtsiz odamman, deb his qilganmisiz?

10. Siz bahs munozaralarda o'zingizning ko'p narsaga qodirligingizga ishonasizmi?

11. Siz yoqimtoy qarama-qarshi jinsdagi shaxs bilan tanishishni xohlasangiz, tortinasizmi?

12. Sizda o'zingizni bir joyga qo'ya olmaydigan hollar ham bo'ladimi?

13. Siz odatda, sharoitga qarab ish tutasizmi?

14. Siz biror ishni bajarib bo'lgach yoki biror gapni gapirib bo'lgandan so'ng, bu ishni qilmasam bo'lar edi, gapirmasam bo'lar edi, deb afsuslanasizmi?

15. Sizga odamlar bilan uchrashishdan ko'ra, kitob o'qish afzalmi?

16. Sizni xafa qilish osonmi?

17. Davralarda bo'lishni yoqtirasizmi?

18. Sizda boshqalardan yashiradigan sirlar bo'ladimi?

19. Sizning ba'zan g'ayratingiz jo'shib qadamingizdan o't chaqnaydi, ba'zan esa xafsalangiz pir bo'lib loqaydlashishingiz to'g'rimi?

20. Siz do'stlaringiz davrasining eng yaxshilari bilan cheklanishga intilasizmi?

21. Ko'p orzu qilasizmi?

22. Sizga baqirib gapirishganda, siz ham shunday javob qaytarasizmi?

23. Sizni nimadandir aybdorlik hissi bezovta qiladimi?

24. Siz odatlaringizni yaxshi va ma'qul deya olasizmi?

25. Siz hislaringizga erk berib, do'stlar davrasida o'zingizni xotirjam tutasizmi?

26. Sizda haddan ortiq asabiylashish bo'ladimi?

27. Sizni quvnoq va harakatchan odam hisoblashadimi?

28. Siz biror ishni bajarib bo'lgach, uni bundan ham yaxshiroq bajarishi mumkinligi to'g'risida o'ylaysizmi?

29. Sizda notanish kishilar davrasida bo'lish noqulaymi?

30. Siz g'iybat qilasizmi?

31. Boshingizga har xil hayollar kelib, uyqu bermaydigan hollar ham bo'ladimi?

32. Siz biror narsani bilishni istasangiz, boshqalardan so'rab surishtirishga nisbatan kitobdan bilib olishni afzal hisoblaysizmi?
33. Sizda kuchli yurak bezovtalanish bo'ladimi?
34. Sizga diqqat-e'tiborni talab qiladigan ish yoqadimi?
35. Sizda titrash holati bo'ladimi?
36. Siz doimo haqiqatni gapirasizmi?
37. Sizga bir-birini kamsitadiganlar davrasida bo'lish noqulaymi?
38. Siz serjahlmisiz?
39. Sizga tez harakatlanishni talab qiladigan ish yoqadimi?
40. Siz hammasi yaxshilik bilan tugagan, ammo yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan hodisalardan bezovtalanasizmi?
41. Siz odatda shoshmasdan, sekin yurasizmi?
42. Siz ishga yoki biror kishi bilan uchrashuvga kech qolganmisiz?
43. Bema'ni tushlar ko'rasizmi?
44. Siz suhbatlashishni yoqtirganligingiz uchun paytni boy bermasdan, yangi suhbatdosh bilan tanishishga intilasizmi?
45. Sizni biron-bir og'riq bezovta qiladimi?
46. Siz uzoq vaqt do'stlar davrasida bo'lmasangiz, o'zingizni noxush his qilasizmi?
47. Siz o'zingizni asabiy odam, deb hisoblaysizmi?
48. Sizning tanishlaringiz orasida aynan sizga yoqmaydiganlari ham bormi?
49. Siz o'zingizni o'ziga ishongan odam, deb hisoblaysizmi?
50. Sizning ishingiz yoki kamchiligingiz tanqid qilinsa, hafa bo'lasizmi?
51. Sizda ko'pchilik ishtirok etadigan tadbirlardan qoniqish qiyinmi?
52. Sizni, boshqalardan nimam bilandir yomonman, degan tuyg'u bezovta qiladimi?
53. Sizningcha zerikarli davrani jonlantirish osonmi?
54. Sizda o'zingiz tushunmagan narsalar haqida gapirgan vaqtingiz bo'ladimi?
55. Siz sog'lig'ingizdan bezovtalanasizmi?
56. Siz boshqalar ustidan hazillashishni yoqtirasizmi?
57. Siz uyqusizlikka duchormisiz?

Familiya va ismi sharifingiz _____
 Sana _____ Yoshingiz _____ Ma'lumotingiz _____
TESTNING JAVOB BLANKI

№	Ha (+)	Yo'q (-)	№	Ha (+)	Yo'q (-)	№	Ha (+)	Yo'q (-)
1			20			39		
2			21			40		
3			22			41		
4			23			42		
5			24			43		
6			25			44		
7			26			45		
8			27			46		
9			28			47		
10			29			48		
11			30			49		
12			31			50		
13			32			51		
14			33			52		
15			34			53		
16			35			54		
17			36			55		
18			37			56		
19			38			57		

Testning kaliti

1. Ekstra-introversiya:

Ha-1,3,8,10,13,17,22,25,27,39,44,46,49,53,56

Yo'q-5,15,20,29,32,34,37,41,51

2. Neyrotizm:

Ha 2,4,7,9,11,14,16,19,21,23,26,28,31,33,35,38,40,43,45,47,50,52,

55,57

3. Yolg'on:

Ha-6,24,36

Yo'q-12,18,30,42,48,54

Natijalarning me'yoriy ko'rsatkichlari:

1. Ekstra-introversiya:

0-6 ball-chuqur introvert,

7-9 ball -introvert

10-12 ball-ambiversiya

13-18 ball-ekstravert

19-24 ball-yuqori ekstravert

2.Neyrotizm:

0-8 ball-psixologik sog'lom odam.

9-11 ball-asabi joyida, ortiqcha zo'riqishlardan xoli.

13-16 ball-asabiylik mavjud, o'zini boshqara olish imkoniyatiga ega, ammo ko'pincha uni tartibga solishga e'tibor qaratmaydi.

17-24 ball-yuqori asabiy asabida ortiqcha zo'riqish mavjud, o'zini boshqarishi juda qiyin. Tez affektiv holatga, frustratsiyaga duch keladi.

3.Yolg'on:

0-5 ball-test savollariga ochiq javob bera olgan. O'zini to'g'ri baholay biladi.

6-9-test savollarini tushunmagan, javob berishga ikkilangan yoki o'zini ortiqcha baholashga moyil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T: , 2008 y
2. Rasulov A.I. Psixodiagnostika. O'quv - metodik qo'llanma.T: , 2009 y.
3. Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. T: , 2004 y.
4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya, II kitob. T:- Universitet. 2002 y
5. Qurbonova Z. Eksperimental psixologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari. Namangan , 2007 y.
6. Asadov Y va Musurmanov R. O'smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. T: , 2011 y.
7. Ibragimov X.I va boshqalar. Pedagogik psixologiya. T: , 2009 y.
8. Toshimov R.Yu, G'oziyev E.G'. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya.- T: , 2004y
9. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – T.:Yangi asr avlodi, 2008 y
- 10.O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda qo'llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari. T: , 2006 y.
- 11.Daminov Q. va boshqalar. Psixologiyadan seminar va laboratoriya mashg'ulotlari. T: , 1994 y.
12. Назарова К. Экспериментальная психология. Тошкент, 2001 г.
13. Немов Р.С. Практическая психология. Москва, 2000 г
14. Практикум по общей психологии. Москва, 1990 г.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-LABORATORIYA ISHL Mavzu: Bilish jarayonlari psixodiagnostikasi, sezgirlik chegarasini o'rganish.....	4
2-LABORATORIYA ISHL Shaklni idrok qilishda faol va passiv tuyushning roli.....	8
3 - LABORATORIYA ISHL Vaqtni idrok qilish.....	11
4 - LABORATORIYA ISHL Xotiradagi individual xususiyatlarni o'rganish.....	12
5 - LABORATORIYA ISHL Masala yechish usuliga tajribaning ta'sirini o'rganish (Lachins metodikasi)	15
6 - LABORATORIYA ISHL Diqqat ko'chuvchanligini o'rganish (Shult metodikasi).....	18
7 - LABORATORIYA ISHL Mavzu: Shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi.....	21
8 - LABORATORIYA ISHL Shaxsning muloqatchanlilik sifatlarini o'rganish (V.F.Ryaxovskiy so'rovnomasi).....	29
9 - LABORATORIYA ISHL Mavzu: Shaxsning kasbiy qiziqishlarini aniqlash metodikalari (Xolland testi).....	33
10 - LABORATORIYA ISHL Mavzu: Qobiliyat va intellekt psixodiagnostikasi (10-11-mashg'ulotlar).....	39
11 - LABORATORIYA ISHL Intellektual qobiliyatni aniqlash (R. Amtxauer testi)	57
12 - LABORATORIYA ISHL Mavzu:Shaxs psixodiagnostikasi (12-14-mashg'ulotlar).(V.A.Sonin metodikasi)	65
13 - LABORATORIYA ISHL Shaxs psixodiagnostikasida o'z-o'zini baholash (Budossi metodikasi)	69
14 - LABORATORIYA ISHL Ko'p omilli shaxs so'rovnomasi (FPI).....	71
15 - LABORATORIYA ISHL Mavzu: Shaxs psixodiagnostikasida proektiv metodikalardan foydalanish (15-16-mashg'ulotlar)..	80
16 - LABORATORIYA ISHL Mavjud bo'lmagan hayvon testi.....	89
17 - LABORATORIYA ISHL Mavzu:Shaxsning temperament xususiyatlarini tadqiq qilish (17-18-mashg'ulotlar)	92
18 - LABORATORIYA ISHL Ekstraversiya-introversiya va neyrotizmni aniqlash G.Yu.Ayzenk so'rovnomasi).....	100
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	106

JASUR BAXTIYAROVICH MAJIDOV

PSIXODIOGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA

(Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy
ko'rsatmalar)

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015

Muharrir:

Tex. muharrir:

Musavvir:

Musahhih:

Kompyuterda

sahifalovchi:

F.Ismoilova

M.Holmuhamedov

D.Azizov

N.Hasanova

Sh.Mirqosimova

E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.

Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 04.11.2015.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 6,0. Nashriyot bosma tabog'i 6,75.

Tiraji 500. Buyurtma №202.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.